

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida**

**MUHAMMATOVA OZODA**

**MUMTOZ KUY-QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY  
G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISH.**

**Musiqiy ta'lim bo'yicha magistr  
darajasini olish uchun**

**MAGISTRLIK DISSERATATSIYASI**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga  
ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar:

“Musiqi o'qitish metodikasi va  
xalq cholg'u asboblari” kafedra mudiri  
E.K.Djalilov\_\_\_\_\_

prof: A.Ergashev\_\_\_\_\_

**SAMARQAND -2013.**

**M**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.</b>	<b>3-9</b>
<b>I BOB: MUMTOZ KUY-QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI.</b>	<b>10</b>
1.1. Mumtoz musiqa vositalarida o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.	<b>10-22</b>
1.2. Mumtoz musiqa vositalarida o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning pedagogik muammolari.	<b>22-32</b>
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.	<b>33</b>
<b>II BOB: MUMTOZ KUY-QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY- USLUBIY ASOSLARI.</b>	<b>34</b>
2.1. Musiqa darslarida o'quvchilarga mumtoz musiqa haqida beriladigan bilim va tushunchalar mazmuni.	<b>34-37</b>
2.2. Mumtoz kuy- qo'shiqlarni o'rganish jarayonida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish shakl va uslublari.	<b>38-50</b>
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.	<b>51</b>
<b>III BOB: MUMTOZ KUY-QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISH TIZIMI VA UNING SAMARADORLIGI.</b>	<b>52</b>
3.1. Mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati .	<b>52-58</b>
3.2. Tajriba- sinov ishlari natijalari tahlili.	<b>58-62</b>
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.	<b>63</b>
<b>Umumiy xulosalar</b>	<b>64-65</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.</b>	<b>66-70</b>
<b>Ilovalar.</b>	<b>71-7</b>

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga o'tgan dastlabki davrda uning keyingi taraqqiyot yo'lini belgilovchi eng muhim omil sifatida milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasi dolzarb vazifa qilib qo'yildi. Chunki, insoniyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hech qanday jamiyat va millat mafkurasiz yashay olmaydi. Dunyodagi har bir davlatning, jamiyatning o'ziga xos, o'ziga mos keladigan uning tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo'ladi.

Milliy mafkura kishilarda milliy madaniyatning milliy ong, milliy g'ururning o'sishiga, milliy qadriyatlarni qadrlash tuyg'ularini kamol topishiga xizmat qiladi. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlarni hal qiluvchi omilidir".<sup>1</sup>

Milliy g'oya esa yangi tuzumni barpo etishda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida erkin va obod, mustaqil jamiyat barpo qilishga ishonch uyg'otish, bu yo'lda o'ziga kuch- quvvat va madad topishida umumiy, yagona maqsad va orzu –intilishi vazifasini bajaradi.

Milliy istiqlol mafkurasi Prezidentimiz tomonidan ko'rsatib kelinayotgan ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan madaniy merosimizga munosabat masalasida ham katta o'rin tutadi. Madaniy, ma'naviy meros avlod-ajdodlarimiz tomonidan necha- necha asrlar davomida yaratilib, avaylab asrab kelinayotgan buyuk xazinadir. "Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi"

Milliy madaniy meros namunalari mazmunida aks etgan g'oyalar yosh avlodni barkamol shaxs sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy tarbiyaning ilmiy, pedagogik asoslarini tiklash, milliy g'oya va milliy mafkuraning ma'naviy negizini mustahkamlash, ushbu maqsad yo'lida milliy madaniy qadriyatlardan samarali foydalanishga ehtiyoj va e'tibor kuchaydi. Zero milliy g'oya va mafkura xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy o'zligi, ma'naviy qiyofasi (tili, urf-odatlar, tarixi, adabiyoti, san'ati kabi)ni belgilovchi o'chmas merosidan oziqlanadi. Bunday milliy meros tarkibida xalq ma'naviyatining sarchashmalaridan bo'lmish xalq musiqa merosi alohida o'rin tutadi. Xalq musiqa merosi o'zida muayyan xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etno-psixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlarini mujassam etadi. Shu ma'noda u jamiyatni kelajagini yaratuvchi yosh-avlodni ta'limi va tarbiyasida o'ziga xos muhim o'rin tutadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Milliy madaniy meros, xususan milliy musiqiy meros tizimida mumtoz maqomi bilan yuritiluvchi ashulalar va milliy cholg'u ijrochiligi namunalari salmoqli mavqega ega bo'lib, musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunida ulardan o'z o'rnida va aniq pedagogik maqsadlarda foydalanish o'sib kelayotgan yosh-avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda benazr manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa san'ati uning ayrim turlari, ijrochilik yo'nalishlari vositasida estetik, ma'naviy, badiiy did, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash masalalari respublikamizda bajarilgan qator ilmiy- tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Milliy madaniy merosdan foydalanish bo'yicha qilingan ilmiy- tadqiqotlar sirasiga san'atshunos olimlar- R.Abdullayev, T.G'ofurbekov, O.Ibrohimov, S. Begmatov, F.Karamatovlarning dissertatsion ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

---

1. I.Karimov, O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, - T.-: "O'zbekiston", 1995, 53-bet.

Xalq musiqasi vositasida o'quvchi- yoshlarni axloqiy- estetik tarbiyalash muammolari A.Hasanov, R.Qodirov, H.Nurmatov, Q.Mamirov, S.Annamuratova S.X.Fayzulina, F.Jurayev, N.Tolibpyevlar tomonidan taqdim etilgan.

Xalq qo'shiqlari va ularning mazmunida aks etgan g'oyaviy-badiiy mazmun orqali talaba yoshlarning estetik madaniyatini, badiiy didini shakllantirishning shakl, uslub va badiiy vositalari I.Qudratov, E.Fayzullayev, S.Romanova, H.Qiyomov, R.Tursunov kabi pedagog- olimlarning ilmiy tadqiqotlarining ish mavzusi sifatida o'rganilgan.

V.I.Petruleii, D.Ro'ziyev, D.Jamalova, D.Solenova, O.Xoliq, O.M. Tomsinskaya, R.Oripovalarning ilmiy izlanishlari esa musiqa san'atining vositasida shaxsni ma'naviy axloqiy jihatdan kamolga yetkazishdagi psixologik va g'oyaviy-badiiy jihatlar o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Bir qator tadqiqotchilarning ishlarida esa asosiy maqsad Sharq allomalarining musiqiy merosi, xalq musiqasining o'ziga xos jihatlari, tarbiyaviy imkoniyatlari, yo'nalishlari, an'analar va xalq qo'shiqlarida ifodalangan g'oyalarga qaratilgan bo'lib, R.S.Abdullayev, M.Aloviya, M.Rajabova, T.S.Vizgo, U.Jumanazarov, I.Ikromov, O.Matyoqubov, N.B.Toshtemirov, H.Hamidovlarning ishlarini shular jumlasiga kiritish mumkin.

Biroq nazariy tahlillar umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz musiqasi bilan o'quvchi-yoshlarni maqsadli tanishtirib bo'rish, shu jarayonda ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish alohida pedagogik tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmaganligi, aynan umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'quvchilarni mumtoz musiqa bilan tanishtirib borish, kerakli bilim va tushunchalarni berib borishda muayyan kamchiliklar borligi kuzatildi. Bu esa biz tomonimizdan magistrlik dissertatsiyasi mavzusini **“Mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish.”** deb nomlanishda tanlashimizga asos bo'ldi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotga ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi milliy madaniy va ma'naviy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish, shu

orqali ta'lim-tarbiya tizimini milliy negizini mustahkamlashga keng yo'l ochib berdi. Shunga ko'ra mazkur tadqiqot mavzusi respublikada ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, hamda A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining ilmiy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mos izlanish sifatida etirof etilishi mumkin.

**Ishning davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Respublikada Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi, shuningdek A.Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti "Musiqqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari" kafedrasining ilmiy- pedagogik tadqiqotlari rejasi doirasida bajariladi.

**Tadqiqot maqsadi:** O'zbek mumtoz musiqa namunalari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning ilmiy pedagogik va uslubiy asoslarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti:** Umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** Musiqa darslarida mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishning mazmuni, shakllari, uslub va vositalari.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. O'zbek mumtoz musiqasining o'quvchi-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishdagi imkoniyatlarini o'rganish;
2. Umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'zbek mumtoz musiqasini o'rganishning mavjud holatini o'rganish;
3. Musiqa san'ati vositasida estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan ilmiy- tadqiqotlar va amaliy tajribalarni o'rganish;
4. O'zbek mumtoz musiqa asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik

faoliyat mazmuni, tashkiliy-uslubiy asoslarini(samarali shakl, metod va vositalari)aniqlash;

5. O'zbek mumtoz musiqa namunalari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish bo'yicha amaliy tajribalar samaradorligini aniqlovchi mezonlarni aniqlash;

6. Mumtoz qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:** Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarida o'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlarini o'rganish orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish jarayoni samarali bo'ladi:

Agarda bu jarayonni samarali kechishini kafolatlovchi zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilsa, ya'ni, mumtoz musiqa bo'yicha darslarni yuqori saviyada o'tishga munosib malkali o'qituvchilar (yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan )jalb etilsa, mumtoz musiqa asarlari, ular mamunida aks etgan g'oyalardan o'quvchilar milliy ongi, ma'naviyati va mafkurasini shakllantirishda foydalanishning o'ziga xos samarali ish, shakl, uslub va vositalari aniqlansa; o'quvchlarning mumtoz musiqaga qiziqishini oshirishga , ularni o'rganish, kuylash, g'oyaviy- badiiy mazmuni va musiqiy asar sifatidagi tuzulishi, janr xususiyati, ijrochilik an'analari va uslublarini mustaqil tahlil qila olish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishishning imkonini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqilsa;

**Ishning ilmiy yangiligi:**

1. O'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish muammosi, pedagogika nazariyasi va amaliyotida ilk marotaba tadqiq etildi;

2. Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi;

3. Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkura ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan faoliyatning samarali usul, shakl va vositalari ishlab chiqildi;

4. Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish bo'yicha qo'llanilgan uslublar samaradorligi aniqlandi;

5. Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi;

**Tadqiqot metodlari:** Mavzuga oid ilmiy, tarixiy, estetika, san'atshunoslik, pedagogik, psixologik manbalarni o'rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatish, ilg'or tajribalarni o'rganish, suhbat, savol javob, munozara, anketa-so'rov, tajriba-sinov, matematik statistika.

**Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:**

-Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni, ilmiy-nazariy asoslari;

-Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish imkonini beruvchi ish usullari, shakl va vositalari;

-Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish darajasini belgilovchi mezonlar;

-Mumtoz kuy-qo'shiqlari orqali o'quvchilarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi xulosa va tavsiyalar.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:**

-Tadqiqot natijalariga ko'ra musiqa pedagogikasi va metodikasi hamda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni mumtoz musiqa bilan tanishtirish jarayonida ularda musiqa madaniyati bilan birga milliy g'oya va mafkurani shakllantirishga oid yondoshuvlar ilmiy –metodik tavsiyalar bilan boyitildi;

-Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy madaniyatini tarbiyalash, ayni paytda ularda milliy g'oya mafkurani shakllanishida mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati yoritib berildi;

-Mumtoz musiqa namunalari o'rganish orqali o'quvchilarda milliy g'urur, nafosat shu bilan birga milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish mazmuni, shakl, usul va vositalari aniqlandi;

-Tadqiqot natijalaridan umumta'lim maktablari, pedagogika kollejlari, maktabdan tashqari muassasalarda o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida mumtoz musiqaga oid mashg'ulotlarini tashkil qilishda ilmiy uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin;

**Tadqiqot natijalarining ommalashgan darajasi.** Tadqiqod natijalarining asosiy mazmuni Samarqand Davlat Universiteti, Nizomiy nomli TDPU, Jizzax Pedagogika Institutlarida bo'lib o'tgan ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda, Samarqand viloyat XTB ga qarashli pedagog o'qituvchilar malakasini oshirish institutining "Ziyokor" ilmiy-uslubiy jurnalida chop etilgan maqolada e'lon qilingan. Ish A.Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti "Musiqqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari" hamda "Musiqqa nazariyasi, tarixi va an'anaviy ijrochilik" kafedralarining qo'shma yig'ilishlarida (2012yil dekabr, 2013 mart) muhokamasidan o'tgan va ma'qullangan.

**Ishning sinovdan o'tishi.** Tadqiqot yuzasidan olib borilgan tajriba sinov ishlari Samarqand shahridagi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazildi.

**Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi:** Dissertatsiya Kirish, uch bob, 6 paragraf, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 72 betni tashkil etadi.

## **I BOB: MUMTOZ KUY-QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI.**

### **1.1. Mumtoz musiqa vositalarida o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.**

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish sharofati bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar natijasida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, o'rganish, ulardan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda keng foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Jamiyat taraqqiyotini yuqori darajaga olib chiqish muammolari bosqichma-bosqich hal etilmoqda. Ana shunday muammolardan biri yoshlar ta'lim-tarbiyasining yangicha milliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ta'lim milliyligining nazariy asoslari Prezidentimiz I.Karimovning asarlarida har tomonlama ta'riflab berildi. Bu o'rinda ta'lining milliy negizini yaratishda birinchi navbatda xalqimizning juda boy va o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlariga tayanish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Mustaqil Respublikamizning ta'lim tizimini yangicha asoslarda shakllantirishga jahonning ilg'or mamlakatlarida qo'llanilayotgan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish kulami va sifati hamda samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Buni I.Karimov Respublika Oliy majlisining 1997-yilda bo'lib o'tgan IX sesseyasida so'zlagan "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli tarixiy nutqida quyidagicha bayon etadi. "Zamonaviy iliy ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak?...Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishiiz kerak"<sup>1</sup>

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida milliy-ma'naviy g'oyalarning aks etishi xalqimiz

---

1. I.Karimov, Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq", 1997, 7-8-bet.

asriy orzularining amalga oshishi in'ikosi hisoblanadi. Chunki uzoq davrlar mobaynida bizda ta'lim-tarbiya ishlari I.Karimov ta'biri bilan aytganda "...jahon sivilizatsiyasining ilg'or yutuqlaridan va xalqimizning tarixiy ildizlaridan ajralib qolgan edi"<sup>1</sup> Buni musiqa ta'limi sohasida yaqqol ko'rishimiz mumkin edi. Musiqa sohasida deyarli barcha o'quv dasturlari, o'quv mashg'ulotlari repertuarlari yevropa madaniyati ta'sirida yozilgan va kommunistik mafkura bilan yo'g'rilgan asarlardan iborat edi. Muayyan xalqning milliy ruhi, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari, hayotiy falsafasi va nihoyat eng muhimi shu xalqning qalbini, milliy qiyofasini o'zida mujassam etuvchi milliy musiqa, mumtoz va maqomlarni o'rganish, ularni yoshlar qalbiga, ongi va shuuriga singdirishga e'tibor atayin sust edi.

Albatta, eski mafkuradan qutilish, ta'lim-tarbiya mazmunini mustahkamlash g'oyalari, milliy istiqlol mafkurasi negizida shakllantirish birdaniga amalga oshiriladigan ish emas. Bu yo'lda dastlabki qadamlar tashlandi, eng asosiysi uni amalga oshirish tamoyillari, nazariy asoslari belgilandi.

Bizga ma'lumki u yoki bu xalq, millat to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lish uchun, uning madaniy merosi, san'ati, adabiyotidan xabardor bo'lish kifoyadir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, xalqning muayyan tarixiy bosqichlarini, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy turmush tarzi, hayotiy qarashlari, orzu umidlari, urf-odatlarini o'zida mujassam etgan xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom ashularini o'rganish yetarlidir. Chunki xalq musiqa san'ati umuminsoniy g'oyalarni tarannum etishi bilan o'zida, milliy g'oya va mafkuraning eng muhim tendensiyalarini ifoda etadi.

Xalq musiqa merosi musiqa merosiga mansub turli janrlarda yaratilgan namunalarni o'rganish, g'oyaviy- badiiy mazmunini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki ularda Vatan, tabiat, insoniy fazilatlaridan halollik, mehnatsevarlik, ona tabiatga,

---

1. I.Karimov, Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.2-tom, -T.: "O'zbekiston", 1999. 12-bet.

insonlarga mehr-muhabbat, tinchlik, adolat Vatan ravnaqi uchun o'zini safarbar etish g'oyalari tarannum etiladi. Mana shunday badiiy, yetuk qiymatga ega san'at namunalari yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida, qolaversa barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, Respublikamizda amaliy qilinayotgan ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan musiqiy ta'lim-tarbiyaning eng asosiy shakllantiruvchi bo'lmish umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni milliy musiqa merosimizning eng noyob namunalari hisoblanmish-xalq qo'shiqlari, ashulalari, kuylari va xalq mumtoz musiqasining asosi bo'lgan maqom san'ati bilan chuqur tanishtirib boorish, shu orqali ularda yuksak madaniyat va ma'naviyatni shakllantirishga dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozim bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirilishi birinchidan, ta'limni milliy negizini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan yosh avlodni milliy o'zlikni teranroq his etishlariga olib keladi, uchinchidan yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini oshirishga olib keladi. Bu esa umumta'lim maktablarining musiqa fani bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklari repertuarlariga kiritilgan, kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar repertuarlarini qayta ko'rib chiqishni, o'zbek xalq qo'shiqlari, mumtoz musiqa haqidagi bilim va malakalarni berishga mo'ljallangan o'quv materiallarini ma'lum sinf va chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga e'tiborni qaratish, nisbatan ancha murakkab ijod mahsuli bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni sinf va sinfdan tashqari shakllarini uzviylikda va tizimli ravishda yo'lga qo'yishini talab qiladi. O'z-o'zidan ravshanki, bu jarayonda xalq musiqa ijodiyoti, xususan mumtoz musiqa haqida beriladigan o'quv materiallari hajmini kengaytirish, mazmunan yanada boyitish, o'quv soatlari miqdorini ham ko'paytirish lozim bo'ladi.

O'zbek xalqining musiqa merosida xalq qo'shiqlari qatorida bebaho ijod namunasi bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlar ham salmoqli o'rin egallaydi. O'zbek mumtoz qo'shiqlari milliy qo'shiqchilik rivojini yuksaltirishda eng muhim asos bo'lishi bilan birga shaxs, xususan, o'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarni badiiy-estetik, madaniy, ma'naviy tarbiyasida ham yuksak ta'sirchanlik kasb etadi.

Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslari va darsdan tashqari faoliyatda aniq maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni o'zbek maqom tarkibiga kiruvchi ashulalar, cholg'u ijrochiligi namunalari bilan yaqindan tanishtirib borish orqali ular tomonidan xalq musiqa merosiga hurmat, qiziqish, ularni mehr qo'yib o'rganish, kelgusida davom ettiradiga darajada bo'lish ko'nikma va malakalarini hosil qilish bilan birga, zamonaviy yoshlar tarbiyasiga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtmani bajarish, ya'ni ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishga erishish mumkin.

Shuni e'tirof etish joizki, o'zbek xalq mumtoz ashulalari, qo'shiqlari negizida xalq og'zaki ijodi yoki mumtoz she'riyat namunalari (aksariyat g'azal janriga oid she'rlar)ga xos adabiy matn yotadi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy bastakorlarning ham ko'pchiligi xalq qo'shiqlarini, mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari ohanglaridan ijodiy ilhomlanib yangi kuy-qo'shiqlar yaratib kelishmoqda.

Mumtoz adabiyot vakillari tomonidan yaratilgan she'riy asarlar yuksak ijod namunasi sifatida ko'p asrlar davomida xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelinadi. Ularning badiiy asar sifatida yuksak mahorat va istetod egasi ekanligi, ular mazmunida ifoda etilgan g'oyalar, ilohiy ishq tarifi bayon etilgan lirik kechinmalar, nozik his-tuyg'ular, g'oyat nafis tasvirlar, o'xshatishlar, tasbehtar, ranglar tasviri har qanday kishi qalbida o'ziga xos, ajib hissiyotlar uyg'otadi. Bunday asarlarni qayta-qayta o'qiysan va har gal ular seni qalbingda o'zgacha tuyg'ular vujudga keltiradi. Shoirning betimsol xayolati, o'z xayolotida siymosini chizgan mashuqasining olijanob fazilatlarini, kishi erkini zabt etuvchi tashqi ko'rinishi, harakat va qiliqlari beixtiyor o'quvchining ham qalbini rom etadi. Bunday she'riy matnga bastalangan kuy-musiqa shirli ta'siri uyg'unlashib, inson hissiyotiga nisbiy, emotsional ta'sir etish jihatidan estetik tarbiyaning qudratli vositalaridan biriga aylanadi. Musiqa qo'shiqning badiiy-emotsional ta'sirchanligi va estetik-tarbiyaning mavqeyini kuchaytiradi. Bu esa ijrochilarni ham, tinglovchilarni ham, badiiy-estetik zavqlanishi, qalbida olijanob his-tuyg'ular uyg'onishi, hayotga muhabbati oshishi, go'zallikka intilishi va go'zallik yaratishga

ishtiyoqini kuchaytiradi. Bularning barchasi estetik tarbiyalanganlik tushunchasida o'z in'ekosini topadi desak aslo xato bo'lmaydi. Shuning uchun ham mumtoz musiqa asarlaridan (kuy-qo'shiqlar), ularning ma'naviy va estetik tarbiya imkoniyatlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu o'rinda ashula matnidagi tarbiyaviy jihatlarni, asarni musiqiy ijod mahsuli sifatidagi badiiy qimmatini, uning tuzulishi, janriy xususiyatlari, ijrochilik talablari, ijro etuvchilar imkoniyatlariga mosligi jihatidan o'quvchilarning musiqaviy idrok etish imkoniyatlariga mosligi nuqtai-nazaridan tanlash, ularning mohir ijodkorlari haqida ma'lumotlar bilan to'ldirish, imkon qadar namunalarini mahoratli hofizlarning ijro-yozuvlarini tinglashlariga, so'gra tahliliy suhbatlar o'tkazilishiga jiddiy yondoshish lozim bo'ladi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra doimo go'zallikka intilib yashaydi. Shuning uchun ham go'zallikka intilish mayli bilan yashaydigan insonni yoshligidan go'zallik qonunlari bo'yicha tarbiyalash, undagi go'zallikni his etish, baholash, unga o'z munosabatini bildira olish, go'zallik yaratishga bo'lgan iste'dodini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratib berish estetik tarbiyaning bosh maqsadini va vazifasini belgilaydi.

Prezidentimizning "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida ta'lim-tarbiya sohasi bo'limida milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish ishlarini estetik tarbiya bilan birga olib borishga alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda mumtoz musiqa, maqom musiqalarini xalqimiz hayotiga, yoshlar ma'naviyatiga kengroq miqyosda olib kirish, ularni targ'ib va tashviq qilish bo'yicha bir qator ma'naviy-madaniy tadbirlar o'tkazib kelinayotganligi quvonarli hol. Har yili o'tkaziladigan "Kelajak ovozi", "Diyorim ohanglari", "Talantlarni izlaymiz", "Katta ashulachilar tanlovi", Komiljon Otaniyozov, Ma'murjon Uzoqov nomidagi ko'rik tanlovlarni o'tkazib kelinishi shuningdek, O'zbekiston televedeniyasidagi "Ohanrabo", "Tarannum" teleko'rsatuvlarini yo'lga qo'yilganligi, O'zbekiston Milliy Konservatoriyasi, Toshkent madaniyat va san'at institutida mumtoz va maqom ijrochiligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash

yo'nalishlari faoliyat ko'rsatayotganligini ijobiy baholash mumkin. Mumtoz musiqa uning umumjahon musiqa madaniyati, xususan Sharq xalqlari madaniy hayotida tutgan o'rni ularning o'zaro mushtaraklik jihatlarini (cholg'ular turdoshligi, musiqiy atamalar va iboralardagi nomlanishlar o'xshashligi, ijrochilik an'analari, uslublaridagi mutanosiblik, rivojlanish tendensiyalari) ochib berish, bu o'rinda azaliy aloqalarni tiklash va yanada yuqori miqyosda rivojlantirish maqsadida har 2 yilda o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro Samarqand festevalining ham ahamiyatini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Bunday tadbirlar, anjumanlarning foydali tomonlari shundan iborat bo'lmoqdaki, ularda uslubchi va nazariyotchi olimlar-musiqashunoslar aynan maqom va mumtoz ijod, ularning shakllanishi, mushtaraklik jihatlari, ijro an'analari va uslublari haqida fikrlarini bildirib, musiqa ilmi rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Mumtoz musiqadan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish borasida ham e'tiborga molik ilmiy-tadqiqotlarqilinayotganligi ham xalq musiqa merosini o'rganish, uni xalqimiz ma'naviyatiga tadbiq qilish sohasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar mazmuniga mos keladi. Jumladan san'atshunos olim R.Abdullayevning katta ashula janri, S.Begmatovning Farg'ona vodiysi qo'shiqchilik an'analari, O.Matyoqubovning og'zaki an'ana-dagi professional (mumtoz va maqom) musiqa ijrochiligining nazariy masalalari haqidagi, F.Karamatov, X.Ikromov, T.G'ofurbekovlarning milliy musiqamizning mahalliy uslublari, ularning rivojlanish tendensiyalari, cholg'ular tarixi haqidagi tadqiqotlari shular jumlasidandir. Musiqa pedagogikasi va estetik tarbiya muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki adabiyot va san'at turlari vositasida ish tutish mohiyatan bir-biriga yaqin turadi. Ular san'atning muayyan shakllari bo'lganligi va inson ruhiyatiga emotsional ta'sir kuchi bir-biriga yaqinligi uchun ham ish uslublari, shakl va mazmuni, beriladigan tavsiyalarida ham yaqinlik ko'zga tashlanadi. Aslida san'atning qo'shiqchilik bilan bog'liq turlarini bevosita adabiyot (she'riyat) bilan bog'liqligi ham bunda asosiy omil hisoblanadi. Xalq qo'shiqchiligi, ayrim vohalarga xos janrlar vositasida estetik tarbiyalash muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga

oshirilgan. Bu o'ringda B.X.Madrimovning "Xorazm musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari", O.A.Vasilechenkoning "Maktab musiqiy-xor ijrochiligi jarayonida o'smir-yoshlarni estetik didni shakllantirish", Sh.Janaydarovning "O'quvchi-yoshlarni musiqa vositasida vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalash", F.Jurayevning "O'quvchi-yoshlarni o'zbek cholg'u asboblari tugaraklarida ommaviy-musiqiy, estetik tarbiyasini yo'lga qo'yish va takomillashtirish", D.Jamalovanning "Sharq poetik-musiqiy an'analari orqali o'quvchilarni musiqiy tarbiyasi samaradorligini oshirish"(Umumta'limmaktablarining 8-9-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar misolida ), D.M.Kamolovanning "Musiqqa san'ati vositasida o'smir-yoshlarni g'oyaviy axloqiy tarbiyalash" , B.Azimovning "Xalq musiqasi vositasida yoshlarni axloqiy tarbiyalash"(Kasb-hunar ta'limi o'quvchilari misolida) kabilarni alohida ko'rsatish mumkin. Bu ishlarda asosan umumiy o'rta talabalarga estetik tarbiya berishning mohiyati, vazifalari turlicha va har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tadqiq etilgan. Bunday ishlarga G.Ch.Najmiddinovning "O'zbekiston Respublikasi pedagogika oily o'quv yurtlari talabalarida kasbga qiziqtirish va shakllantirish", R.Mamatqulovanning "Milliy ma'naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash", X.Nurmatovning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa darslarida o'zbek xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash muammolari", I.Qudratovning "Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash", E.M.Fayzullayevning bo'lajak musiqa o'qituvchilarini badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida), S.E.Romanovanning "Qoraqalpoq milliy-musiqiy an'analari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari", M.B.Qosimovanning "Musiqiy folklor qo'shiqlar vositasida talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash" kabi tadqiqotlarni misol qilib keltirish mumkin.

Lekin bu ilmiy tadqiqotlarda o'quvchi-yoshlarni hamda talaba-yoshlarni milliy musiqiy meros yoki uning ayrim turlari bo'yicha(folklor, mumtoz va maqom)milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash muammosi alohida ilmiy

tadqiq etilmagan. Biz o'zimizning mazkur tadqiqot mavzusini tanlashda bu bo'shliqni baholi qudrat to'ldirishga ya'ni o'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini milliy g'oya va mafkuraga mansub jihatlarini, o'quvchilarda milliy g'oya va mafkuni yetakchi unsurlarini shakllantirishda ijobiy ahamiyat kasb etuvchi xususiyatlarini ko'rsatish, uni nazariy va amaliy jihatdan asoslashga harakat qildik.

Xalq qo'shiqlari ham mumtoz ashulalar va kuylar faqat xalq ijodi namunasigina bo'lib qolmay, ayni vaqtda xalqning mehr-muhabbatiga sazovor bo'lgan, bir necha asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib o'z qimmatini yo'qotmay kelayotgan adabiy-badiiy voqelikka mansub ijod va san'at deb baholanmog'i zarur. Ayrim ilmiy tadqiqotlar, maqola va uslubiy adabiyotlarda xalq musiqasi degan tushunchani faqatgina folklor sifatida talqin qilish holatlari uchraydi. Bu esa shu yo'nalishda ish olib borayotgan musiqa ta'limi mutaxassilari va badiiy havaskorlik to'garaklari rahbarlarini bir yoqlama ish tutishlariga sabab bo'lmoqda. Biz esa xalq ijodiyotining yuksak namunasi bo'lgan, davr sinovlaridan o'tib, keng omma tomonidan etirof etilgan kuy-qo'shiqlarni tanlab olib, ularning tarbiyaviy, estetik qiymatini tahlil qilib, ularni o'quvchi-yoshlarni ma'naviy olamlarini boyitish, shu orqali ularda milliy qadriyatlarga qiziqishni oshirishni asosiy maqsad qilib keldik. Chunki, "mumtoz" atamasining ham asl ma'nosi "tanlangan", "yetuk", "e'tirof etilgan" degan ma'nolarni anglatadi. Bu esa qo'shiqchilikning ashula, katta ashula, ayrim qo'shiq, alla, dostonchilik qo'shiqlari, maqom tarkibiga kirgan asarlarni mumtoz ijod namunasi deb baholash, ya'ni yuksak badiiy ijod namunasi bo'lgan asarlarga nisbat berish to'g'ri bo'lishligini anglatadi. Fikrimizni isboti sifatida shuni ta'kidlashni lozim topamizki, xalqimiz musiqa san'atining "gultoji" bo'lgan "shashmaqom" to'plamining "kirish so'z"ida maqomlar xalq ijodiyotining mahsuli ekanligi, u xalq musiqasining eng noyob, mukammal namunalari sifatida talqin etiladi.

Musiqa san'ati, xususan maqom musiqasi tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar orasida I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" managrafiyasi alohida o'rin tutadi. Unda xalq musiqa san'atining eng noyob badiiy qiymati va

shakllanish bosqichlaridan o'tgan maqomlarning tarixi, ularning turkumlari tuzulishi, lad-tonallik xususiyatlari nazariy tahlil qilingan. Bu kitob o'zbek mumtoz musiqaning asosi bo'lmish maqom kuy-qo'shiqlari haqida atroflicha ilmiy ma'lumot olishda muhim manba hisoblanadi.

Biz tadqiqiy izlanishlarimizga kirishar ekanmiz, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga berilayotgan o'zbek musiqa merosi bo'yicha berilayotgan bilim va tushunchalar, amaliy ijrochilik bilan bog'liq o'quv materiallari mazmuni va mashg'ulotlar sifatini kuzatdik. Tahliliy xulosalarimiz bu borada jiddiy kamchiliklar va muammolar borligini ko'rsatdi. Bu avvalo, umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan musiqa o'qituvchilarini o'zbek mumtoz musiqasi bo'yicha yetarli nazariy va amaliy ijrochilik malakalariga, pedagogik faoliyatga tayyor emasliklarida emasligi ma'lum bo'ldi, buning asosiy sababi musiqa o'qituvchilari tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik, oily o'quv yurtlarida talabalarni mumtoz musiqa bo'yicha kasbiy tayyorlashga e'tibor va yetarli shart-sharoitlarni yaratilmaganligidir.

Pedagogika oily ta'lim muassasalari musiqiy ta'lim iqtisosliklari uchun chiqarilgan o'quv rejalarida "An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari" 3-kursda bir semestrda o'qitilishi belgilangan. "O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi" fanlariga juda kam o'quv soatlari ajratilgan va ularni o'qitish salohiyati nihoyatda cheklangan. Ushbu fanlarni o'quv dasturlarida ko'plab maqomlar va mumtoz asarlarni o'rganilishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ularni o'rganish va amalda qo'llay olish masalalarini egallash imkoniyatlari juda oz. Mumtoz kuy-qo'shiqlarni og'zaki an'anadagi professional ijod namunalari sifatida etirof etilishi nuqtayi-nazaridan qaraydigan bo'lsak, yarim yil, hatto bir yillik olingan tahsil talabalarni bu san'at yo'nalishi bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash mumkin bo'lmagan holatdir. Qolaversa mumtoz qo'shiq namunalarni ijro etish uchun keng diapazonli ovoz, yuqori ijrochilik mahorati va ular haqidagi nazariy ma'lumotlarni egallash va o'quvchilarga o'rgatishning o'ziga xos metodikasidan yetarli bilim va malakalarga ega bo'lishlikni talab etadi.

Bu haqda taniqli san'atshunos olim T.G'ofurbekovning quyidagi fikrlari ham bizning mulohazalarimizni tasdiqlaydi. "O'zbek xalq g'oyat boy va qadimiy musiqiy merosga ega. U maktablarimizda, oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'rgatilmasa, qayerda, qachon o'rganiladi. Ahvol shu tarzda ketaversa bu bebaho boyluk ta'lim va tarbiya tizimidan uzoqlashib, begonalashib ketmaydimi?...bugungi yoshlarimiz an'anaviy ma'nodagi musiqani, maqom va mumtoz kuy-qo'shiqlarni, ko'p ovozli hamda zamonaviy musiqani birdek bilishi, tushunishi zarur"<sup>1</sup>.

Ushbu so'zlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa fani bo'yicha o'quv dasturi va rejasida 6-sinfda yil mavzusi "Mumtoz musiqa" deb nomlanadi. Faqat manashu sinfning 1-2-sinfida o'quvchilarga mumtoz musiqa haqida qisqacha ma'lumot beradi. Ajratilgan soatlar hajmi va o'quv materiallari o'quvchilarda bu bebaho san'at haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish uchun kamlik qiladi.

To'g'ri o'quv dasturida tinglash va kuylash uchun tavsiya etilgan repertuar tarkibida mumtoz asarlarga deyarli barcha sinflarda o'rin berilgan. Lekin tavsiya etilgan mumtoz asarlarni tinglash uchun zarur musiqiy "fonetika" larni mavjud emasligi bu masalani dolzarbligicha qolishiga sabab bo'lmoqda.

Sanab o'tilgan muammolar respublikamizdagi mavjud ta'limning barcha bo'g'inlarida estetik tarbiyaga e'tiborni tubdan o'zgartirish, ayniqsa musiqa ta'lim-tarbiyasida o'sib kelayotgan yosh avlodni birinchi navbatta milliy musuqa merosi bilan shu jamladan mumtoz va maqom san'ati bilan chuqur tanishtirib berish, shu orqali ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish ishlariga jiddiy va mas'uliyat va yondoshish lozimligini ko'rsatadi. Buning uchun mumtoz musiqa vositasida milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning o'ziga xos metodik tizimi ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi lozimligi o'z-o'zidan ayondir.

---

1. G'ofurbekov T. Musiqa sabog'ini qachon o'rganamiz. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1999 yil. mart soni.

Shulardan kelib chiqib musiqa mashg'ulotlari jarayonida, xususan umumta'lim maktablarida ya'ni bizning ilmiy izlanishlarimiz manbai bo'lgan musiqa bo'yicha dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash borasida quyidagi ishlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq bo'ladi deb aytishimiz mumkin:

1. Umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati mashg'ulotlarida bosh vazifa qilib o'quvchilarni milliy musiqa merosi bilan chuqur tanishtirib borish, shu orqali ularda milliy ong, tafakkur, dunyoqarashni shakllantirish lozim;

2. Estetik tarbiyaga xalqimizning milliy madaniyati qadriyatlarini san'atiga tayangan holda yondoshish;

3. O'zbek xalqining tarixi an'analari, urf-odatlarini mujassam etuvchi xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda yuksak ijod namunalari bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlardan foydalanishning shakl, usul vositalarini aniqlash va joriy etish;

4. Mumtoz musiqaga mansub turli janr va mavzulardagi kuy-qo'shiqlarni tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini yorituvchi dastur, metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish;

5. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining dars va darsdan tashqari holdagi faoliyatda estetik tarbiyani uzluksizligi va uzviyligini yo'lga qo'yish bilan respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi oldiga qo'ygan ustuvor maqsadlarga erishishini ko'zlab ish yurutishiga kirishishi;

6. Musiqa o'qituvchilari tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogika oliy o'quv yurtlarining musiqiy ta'lim ixtisosliklari o'quv rejasida "an'anaviy ijrochilik va maqom asoslari" hamda "o'zbek mumtoz qo'shiqchiligi" fanlarini o'qitish mazmuni va hajmini ko'paytirish, bo'lajak pedagoglarni mumtoz musiqa bilan ishlash faoliyatiga tayyorlash ishlarida tubdan burulish yasash;

7. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni turli musiqiy va ommaviy tadbirlar, konsertlar, ko'rik tanlovlarga faol jalb etish, bu tadbirlarni konsert dasturlarida amaliy ijro yo'nalishi bo'yicha qatnashishlarini yo'lga qo'yish lozim. Aynan manashu faoliyatda ularning o'z ustida mustaqil va individual ishlash va erishgan natijalarini keng jamoatchilik oldida namoyish qilishga bo'lgan intilish

holatlari rivojlanadi. Bu o'z mazmuniga ko'ra "an'anaviy"lik tamoyillariga mos xususiyat bo'lib, talabani mumtoz kuy-qo'shiqlarni o'rganish borasida mustaqil shug'ullanish, izlanish, qidirib topish, o'zgaralar yordamidan foydalanish, xullas o'z mahoratini takomillashtirib borishlariga olib keladi.

Ta'lim jarayonida mumtoz kuy-qo'shiqlarni bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan samarali o'zlashtirilishi ko'p jihatdan ushbu yo'nalishdagi faoliyatni qanday tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining yuksak badiiy qimmatga ega asar namunalarni o'zlashtirish darajalari, ularni maktab faoliyati davomida o'quvchilarni asar badiiy qimmatini baholay olish, ularni farqlash, she'riy matnda ifodalangan g'oyaviy-badiiy mazmunni anglashlari uchun zarur bilim va tushunchalarni berish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Umumta'lim maktablarida mumtoz namunalarni to'laligicha o'rgatish, o'quvchilar tomonidan ijro etish shartli vazifa qilib qo'yilmaydi. Balki shunga erishish kerakki, o'quvchi mumtoz musiqani mukammal ijod namunasi ekanligini bilsin, badiiy saviyasi past va yuqori istedod mahsuli bo'lgan asarlarni farqiga borish, qo'shiq, yalla, lapar yoki zamonaviy estrada qo'shiqlariga nisbatan mumtoz kuy-qo'shiqlarni ancha "jiddiy", "murakkab" shu bilan birga ijrochilikda ma'lum tajriba va mahorat, istedodni talab etishini his etish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini taqazo etadi. Shuning uchun ham maktab musiqa darslarida tavsiya etilgan mumtoz namunalarni asosan tinglash, tahlil qilish, ijro uslublariga, har bir ijrochining mahorati, ovozni ishlatish, ohangdorlik, o'ziga xos nola, qochirim kabi musiqiy bezaklarning o'z o'rnida qo'llanishi, usullar (retm)ga e'tiborlarini qaratish asosiy o'rin tutadi.

O'quvchilar yuksak badiiy qimmatga ega mumtoz kuy-qo'shiqlarni tanlash, ular haqida suhbatlar jarayonida, asarlar ijrochilari, yaratilish tarixi haqida ko'proq bilishga qiziqadilar. Manashu istakning o'ziyoq ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishning eng muhim "boshlang'ich omillar"idan hisoblanadi.

Qayd etilganlar umumta'lim maktablarida mumtoz musiqa bilan o'quvchilarni tanishtirib borish mazmunini takomillashtirish jarayonini muvaffaqiyatini ta'minlash bilan birga ta'lim-tarbiya tizimida barkamol avladni

milliy qadriyatlarga sodiq, axloqiy yetuk, nozik didli, milliy g'oya va mafkura tamoyillariga javob bera oluvchi kelajagimiz bunyodkorlarini yetishtirish imkonini beradi. Shundan kelib chiqqan holda o'zbek mumtoz musiqa san'atini shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyatini, undan tarbiyaviy maqsadlar foydalanishning mazmuni, mohiyati, shakl va uslublarini ishlab chiqishga harakat qildik. Bizga ma'lumki har qanday qo'shiqda u yaralgan davrning o'chmas izi bo'ladi. Tarixiy, mumtoz, folklor sarasiga kiruvchi qo'shiq namunalari kishilarga yuksak estetik zavq-shavq baxsh etishi bilan birga o'quvchi-yoshlarga xalq ruhiyatini, o'ziga xos madaniyati, san'ati, turmush tarzi, urf-odatlarini, o'ziga xos etnik xususiyatlarini, raqs, cholg'ulari, milliy kiyinishlari (liboslari) haqida mukammal bilim, tushunchalarga ega bo'lib borishlariga zamin yaratadi.

## **1.2. Mumtoz musiqa vositalarida o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning pedagogik muammolari.**

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy estetik tarbiyalash, ularda "musiqiy madaniyat"ni talab darajasida shakllantirish murakkab va mashaqqatli pedagogik jarayonni talab qiluvchi yo'ldir. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlari, musiqiy didi, qobiliyati, kuylashi, raqsga tushishi, retmni his qilish, eslab qolish, tinglash, idrok etish kabi imkoniyatlari saviyalari har xil bo'lganligidan ularni bir maqsad mavzu yo'nalishida birlashtirish, berilayotgan bilim tushunchalarni mazmuni, mohiyatini anglash, his etish, kuylash, raqs tushish kabi amaliy harakatlarni bajarishga o'rgatish o'qituvchilardan, katta mehnat, sabr-bardosh, kasbiy mahorat va psixologik yondoshuvlarni talab etadi. Shunday bir ilmiy-hayotiy haqiqatni ta'kidlab qo'yish joizki hozirgi ko'pchilik o'quvchi-yoshlar orasida keng tarqalgan yengil-yelpi, jaz, pop, rep. o'zbek estradasidan boshqa san'at turlariga umuman loqaydlik beparvolik, musiqiy-estetik tarbiyaning yo'lga qo'yilmaganligi, ta'limning boshlang'ich bo'g'inlarida musiqiy ta'lim-tarbiya ishlarida jiddiy kamchiliklar borligidan dalolatdir. San'atga bunday qarash, munosabat, kayfiyat

o'z navbatida yoshlarda o'z navbatida kibr, takabburlik, “g'ayrioddiy”, “hayosizlik”, “qo'rqinchli” (ujas) bilan yo'g'rilgan “klip”larga g'ayriixtiyoriy intilish, taqlid qilish xislatlarini tomir otishiga olib keladi va shunday holatlar kuzatilmoqda.

Milliy nafosat va milliy axloq, milliy etika o'zbek xalqining, respublikamizning ma'naviy hayotining ravnaqida naqadar muhim va salmoqli ahamiyatga ega bo'lsa, estetik tarbiya bilan axloqiy tarbiya ham yoshlarning ma'naviy barkamol, axloqiy yetuk, milliy qadriyatlarni teran his euvchi shaxs sifatida kamol topishida bebaho vositadir. Shuning uchun ham ma'naviy yetuk an'analardan, xalq milliy musiqa merosidan unumli va o'rinli foydalanish bugungi kunda har qachongidan ham muhimroq ta'limiy muammoga aylandi. Boisi bugungi kunda turli texnik vositalar orqali behayolikni, sharmsizlikni, quruq ohang bilim yo'g'rilgan “raqs” (to'g'risi retmik harakat) lar, baqiroq, yig'loqi, shovqinli nolalarni kirib kelishi va asosiy zamonaviy estrada san'atidagi qo'shiqchilikni “internatsionallashuvi” (boshqa xalqlar musiqasini o'zbekchaga o'girish, ohangidan foydalanish, taqlid va hokazo) natijasida o'zbek xalqining chinakkam, xalqona, betakror, o'ziga xos an'analari, uslublari betakror jozibasiga ega bo'lgan san'atidan yoshlarni bebahra qolayotganligi, uning o'rnini soxta san'atga qiziqish mayllari egallab olayotganligi kuzatilmoqda. Prezidentimiz I.Karimov bu masalaga ham teran yondoshgan holda “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida shunday yozadi. “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda musiqa san'atining rivojlantirishga qaratilgan dastur va nimalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab–avaylash va o'rganish, uni yosh-avlodga benazir yetkazish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar, xalqaro nufuzli musiqa anjumanlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda.

Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga bo'lgan muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizni yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu masalada ayniqsa yoshlar qalbini o'ziga har tomonlama jalb etadigan Estrada san'atining ahamiyati beqiyos ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz.

...Biz Estrada san'atining bugungi va ertangi rivoji haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor milliy Estrada degan iborani ma'no- mazmuniga alohida e'tibor berishimiz, uni har qanday begona ta'sirdan "ommaviy madaniyat" ruhidagi oqimlar ta'siridan himoya qilishimiz tabiiy, albatta. Bu haqida gapirganda bir holatni afsus bilan aytishga to'g'ri keladi. Ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarining jamoatchilik e'tiboriga taqdim etayotgan asarlari san'atning hech qanday talab va mazmunlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu va musiqa, ijro usullari, balki sahna harakatlarida ham ochiqdan-ochiq, oshkoriy "ommaviy madaniyat" ko'rinishlariga taqlid qilish, "yulduzlik" kasalligiga chalinish holatlari tez-tez uchrab turayotgani chinakkam san'at muxlislarini ranjitmasdan qolmaydi albatta.

Ayniqsa bizning milliy an'analarimizga, axloq-odob qoidalariga mutloqo to'g'ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so'zlarni qorishtirib, yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijrochilar o'zi uchun qandaydir yangicha bir uslub deb bilayotgani, menimcha san'atni uning mohiyati va ahamiyatini tushunmaslikdan boshqa narsa emas.

Nega deganda, agar insonlarning qulog'i yengil – yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa bora–bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir –oqibatda bunday odam "Shashmaqom" singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompazitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi"<sup>1</sup>.

Shu nuqtai-nazardan yosh-avlodga milliy ma'naviy qadriyatlarga munosabatini milliy g'oya, milliy mafkura mazmuniga monand o'rgatish, bu boradagi eng asosiy vazifalar, muammolarni nazariy asoslarini tahlil qilish va

uning ijobiy yechimini ta'minlovchi ish usulari, shart-sharoitlari, pedagogik sharoit va imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchi-yoshlarni mumtoz va maqom san'ati vositasida tarbiyalash, ushbu san'at turlari vositasida ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning ilmiy- pedagogik tizimini ishlab chiqish eng dolzarb pedagogik muammolardan bo'lib qolmoqda.

Prezidentimizning aynan yuqorida keltirilgan asaridagi bildirilgan so'zlari hambizga bunda qanday yo'l tutish borasida ajoyib yo'nalish beradi. "Bu borada asosiy ishlarimiz nimalardan iborat bo'lishi lozim?" – deyiladi Prezidentimiz asarida—"birinchi navbatda milliy ma'naviyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab topilgan tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarida madad bo'lgan.

...Albatta biz tarix sinovlaridan o'tgan milliy manfaatlarimiz bugungi va ertangi orzu intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz."(Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch 78-79 betlar).

Mumtoz musiqani his qilmay turib zamonaviy musiqani idrok etib bo'lmaydi-degan ajoyib hikmat bor. Mumtoz shoirlarimiz, xonanda va sozandalarimiz tomonidan yaratilib va ijro etilib kelingan deyarli barcha asarlar bevosita yoki bilvosita axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilib kelgan. Binobarin xalq ijodiyotiga munosib qo'shiq-ashulalar o'z matni ya'ni she'riy mazmunlarida ifoda etib kelingan g'oyalar bilan uyg'un holatda, ya'ni matn mazmuniga nihoyatda mos ohanglar kishilar hissiyotiga kuchli ta'sir etgan. Qo'shiq, ashulalarda odob, axloq, vatanparvarlik, Vatanga sodiqlik, uni himoya qilish, ravnaqi yo'lida kurashish, otaning qadrini bilish, e'zozlash, insoniy odob, axloq qoidalariga rioya qilish, insonlarga yaxshilik qilish, mehr ko'rsatish, do'stlikni qadriga yetish halollik, to'g'rilik singari insoniy fazilatlar madh etilgan.

---

1. I.Karimov Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T, Ma'naviyat, -2008y. 146-148 betlar.

Yomon illatlarga nafrat, ulardan tiyilish, aks holda xalq nafratiga duch kelishi, insoniyligini yo'qotish mumkinligi haqidagi nasihatimiz she'rlar ilohiy muhabbat, sevgi, insoniy ishq, sadoqat vafoni tarannum etuvchi g'azallar hofizlar tilidan tushmay kelgan. Buyuk Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Sakkokiy, Durbek, Zebuniso, Uvaysiy, Haziniy, Furqat, Muqumiy, Zavqiy, Maxtumquli kabi ko'plab mumtoz adabiyot vakillarining yor, diyor, Vatan va ota-onani ulug'lovchi, she'r va g'azallari bilan aytiluvchi, hozirgi kunda ham xalq hofizlari tomonidan kuylanib kishilar tomonidan e'zozlanib kelinayotgan qo'shiqlarning umrboqiyiligi, xalqchilligi, ommaviyligi aslida ularda ilgari surilgan g'oyalarning juda nafis, xalq ruhiga, diliga, qalbiga yaqin musiqiy ohanglar bilan uyg'unlashib, mahorat bilan kuylanib kelinayotganligidadir. Bunday asarlar xalqimiz ma'naviy bisotida juda ko'p bo'lib, ulardan ayrimlarining mazmun, mohiyati, tinglovchiga ta'siri xususida pedagogik nuqtai-nazardan tahliliy fikr bildirish foydadan holi emas.

O'zbek mumtoz she'riyatining sultoni Alisher Navoiy g'azallari bilan aytiladigan ashulalar o'zbek xalq milliy qo'shiqchiligida salmoqli o'rin tutadi va eng nodir asarlar sifatida kuylanib kelinadi.

Mehr ko'p ko'rguzdim ammo, mehribone topmadim,  
Jon boes qildim fido, orpmijone topmadim.  
G'am bila jonimg'a yetdim, g'am g'usori ko'rmadim,  
Hajr ila dilxasta bo'ldim, dilistone topmadim.  
Ishq aro yuz ming malomat o'qig'a bo'ldim nishon,  
Kuy o'qudim Vomiq Farhodu Majnun qissasi,  
O'z ishimdin bul ajibroq dostone topmadim.

g'azali bilan aytiladigan qo'shiq mumtoz asarlar sarasida eng dilga yaqin asarlar sanaladi.

Meni men istar kishilar suhbatin arjumand etmas.

Mani istar kishilar suhbatin kunlim pisand etmas

Satrlari bilan boshlanuvchi (Xorazm Suvoralari yo'lida) ashula o'zining sehrli ohang yo'li va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi.

Qaro ko'zim kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,  
Ko'zim qarosida mardum kabi Vatan qilg'il.  
Yuzing guliga kungul ravdasin yasa gulshan,  
Qading niholiga jon gulshaniy chaman qilg'il.  
Tanovoringa bag'ir qonidan xino bog'la,  
Otingg'a g'amzada jon rastasin rasan qilg'il.

Ushbu g'azalning betakror tuzilmasi har qanday kishini qalbiga o'ziga xos hissiyotlarni jumbushga keltirib, o'zgacha zavq-shavq va ezgu xayolotlar, sarxush kechinmalar olamiga olib kiradi. Matndagi so'z yashirin ma'nodagi tashbexlar, o'xshatishlarni mohiyatini anglash asarni ta'sirchanligi va badiiy qiymatini yanada yuksak his etilishiga olib keladi.

“Qoro ko'zim” deya murojaat etadi shoir sevgan yoriga, “kelu mardumlig' emdi fan qilg'il” ya'ni “mardumlig'” –odamgarchilik (mardum-odam), fanini ko'rsat, ko'zim qarosida mardum gavhar kabi Vatan qilg'il, makon qilg'il, yani ko'zim qarosida xuddi ko'z gavharidek joylashgil. Bir baytda shuncha ma'no. Yoki:

Tanovorig'a bag'ir qonidin xino bog'la,  
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Sharhi: ... Ey berahm, bevafo yor tanovoring'a ya'ni vasling uchun chopib yuruvchi oshig'inga (tonovor chopib yuruvchi otga qiyoslanadi, bu yerda oshiq ko'zda tutilgan) bag'ir qonidan xino bog'la. U sening vafodor itingdurki, bu “it” ning bo'yniga jon rishtasin rasan (bo'yin bog') qilg'il. (Rishta ip bog'lovchi ildiz va hokazo). (Ibrohim Haqqulov tavsifi).

Navoiy g'azallari bilan aytiladigan kattayu- kichik, san'atga aloqasi bo'masa ham hamma birday kuylaydigan, kuylashga intiladigan, sevib tinglaydigan, musiqasiga raqs tushadigan, hech qachon o'z ahamiyatini mavqiyini yo'qotmaydigan asar sanalmish “Munojot” kuyiga solib aytiladigan “Ul sarvi gulru kelmadi” ashulasini olib ko'raylik;

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi.  
Ko'zlarimg'a kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdimu, chektim yo'lida intizor,

Keldi jon og'zimga'abu ul sho'xu batxu kelmadi.

Va'dasiga binoan kelaman deb kelmagan, kelaman degan yor va'dasiga binoan uni intizorlik bilan kutgan oshiqning "hijron dardini" shunday guzal tasvirlagan misralar, shunga mos, mayin, hazil, nolali, intizorli dardini o'zida jo etgan ohanglar to'lqini jo'rligida kishi qalbiga o'zgacha tuyg'ular olib kiradi. Uni ajoyib xotiralar ummoniga yetaklaydi, muhabbatni sehri allalovchi og'ushiga singdirib, qalbida olijanob hislar uyg'otadi. Shu emasmi haqiqiy nafosat, guzallik! Musiqiy asarni shunday qabul qilish, his etish, tushunish, farqlash har qanday kishini befarq qoldirishi mumkin emas.

Xalqimiz mumtoz musiqasi orasida "Tonovor" turkumiga kiruvchi ashula (raqs)lar 20 dan ziyod. Lekin ularning har biri o'zgacha joziba, o'zgacha tarovatga ega. "Endi sandek", "Qora sochim o'sib qoshimga tushdi", "Yovvoyi tanovor", "Namangan tonovori", "Sumbulayu-sumbula" so'zlari bilan aytiluvchi ashulalarni yangicha ohang, jilolar bilan mahoratli hofiz xonandalarni o'ziga xos ijodida sayqallanib kelayotganligining boisi ularning musiqiy ohanglarining o'ta milliyligi, xalq qalbiga yaqinligidadir.

Xalqimiz bisotida Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Durbek, Ogahiy, Fuzuliy, Nodirabegim, Zebunniso g'azzallari bilan aytiladigan ashular ko'p. Tukman xalqining zabardas shoiri, o'zbek xalqining ham sevimli shoiriga aylangan Maxtumqulining odob-axloq, to'g'rilik, ezgulik, insof diyonatga chorlovchi she'rlarining barchasi qo'shiq qilib kuylanadi desak aslo xato bo'lmaydi.

Kel kunglim men senga nasihat aylay,

Vatanni tark etib ketuvchi bo'lma.

O'zingdan past bo'lgan g'ayir, nomardning,

Xizmatida qulluq etuvchi bo'lma.

Mard o'g'lidur elga yozar dasturxon,

To'g'ri so'z ustida berar shirin jon,

Umrini o'tkazar, aytmaydi yolg'on,

Jahl aylab yolg'on so'z aytuvchi bo'lma.

Yoki, nomard odamlarning salbiy xislatlari, kishilarga vofosizligini tasvirlovchi qo'shig'ini olib ko'raylik:

Nomardlar ham muhammaslar nochorlar,  
Taoming yeb, ishing bo'lsa qocharlar.  
Siring bilib, so'ng aybingni ocharlar,  
Ta'lim bergan ustozingdan ayrilma.

Maxtumqulining xalq pedagogikasining mazmuniga g'oyat mos tushgan mana bu she'ri bilan aytiladigan qo'shig'i ham mumtoz musiqaning eng sara namunalaridan sanaladi.

Har axmoqqa aytma dardu so'zingni,  
Hasrat o'ti jisming yoqqanga bo'lmas.  
G'ussa bilan dono-dono ko'zingdan,  
Achchiq yoshlaringni to'kkancha bo'lmas.

Shoir Furqatning Vatanga muhabbatini va xalq qudratini madh etuvchi, Vatandan ayriliqdagi insonning dardlarini ifodalovchi quyidagi g'azal bilan aytiluvchi ashula yoshlarda Vatan tuyg'usini qalban his etish yoshlarni har narsadan aziz va muqaddasligini chuqur anglashlarida ijobiy rol o'ynaydi va bu bilan milliy g'oya va mafkuraning eng muhim qirralarini qalblariga singdirishga olib keladi. Milliy g'oya va mafkura negizida Vatan tuyg'usi- eng muqaddas tuyg'u sifatida e'tirof etiladi:

Kishi holimni bilmas, mehribonidan adashganman,  
Vatan ovoradurmen, makonidan adashganman.  
Va yo bir murg'I vaxshiy oshyonidan adashganman,  
G'aribi kuyi g'urbat, xonumonidan adashganman.

Shoirning "Tortadur" radifli g'azali bilan aytiluvchi ashulasi hayotdagi ayrim tengsizliklarni ifoda ettirib, odamlarda nohaqlikka nafrat, tog'rilik, odillikka to'g'ri munosabatni shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Charxi kashraftorning bir mevasidan dog'iman,  
Ayshni nodon surib kulfatni dono tortadur.

Shoir haqiqiy ijodiga mansub she'riy matn bilan aytiluvchi ushbu qo'shiq hayotning har lahzasi qimmatli ekani, hayotda sog'lik, yoshlikni bebaholigini anglab yashash lozimligi tasvirlanadi:

Sog'liging qadrini bil xasta bo'lmasdan burun,  
Xastalik shukrini qilg'il toki o'lmasdan burun,  
Bo'z yer qadrini bil, daryoga to'lmasdan burun,  
Kemada hushyor o'tir girdoba kelmasdan burun,  
Yoshliging qadrini bilgil to ulg'aymasdan burun.

Shoirning yoshlarni ota-onani, yoru-do'stlarini qadriga yetish, ularni ezozlashga chorlovchi quyidagi she'ri bilan kuylanadigan ashula ham tarbiyaviylik mohiyati bilan bizning tadqiqotimiz mavzusiga mos namuna hisoblanadi:

To yetim bo'lmay kishi, bilmas atoni qadrini,  
Joni dildan tarbiya qilg'an ononi qadrini,  
Bilmagay hech kim ako birla ukoni qadrini,  
Bir necha heshu, akraboni qadrini,  
Ajrag'ay bilg'ay ako birla ukoni qadrini.

Bizga ma'lumki o'zbek qo'shiqchilik san'atida diniy mazmundagi she'rlar bilan aytiluvchi ashulalar ham salmoqli o'rin egallaydi.

Diniy yo'lda jod qilgan shoirlarning she'rlari insonlarni iymonli-e'tiqodli bo'lishiga, toza-pokiza yurish, birovni haqqini yemaslik, yetim, g'arib, bechoralarga ozor yetkazmaslik, mehr-muruvvat ko'rsatish, gunoh ishlar qilmaslik, ota-onani e'zozlash, qarindosh, yoru-birodarlarga mehribon bo'lish kabi g'oyalar ulug'lanadi, aksincha bo'lgan qilmishlar esa "og'ir gunoh" sifatida talqin etiladi.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda sharq tasavvuf adabiyotining buyuk darg'ali Ahmad Yassaviy she'rlari, hikmatlari bilan aytiladigan ashulalar fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi:

Beshak biling bu dunyo barcha xalqdan o'taro,  
Inonmagin molinga, bir kun qo'ldan ketaro.  
Ota-ona, qarindosh qayon ketti, fikr qil,  
To'rt oyog'liq cho'bin ot bir kun senga yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, haqdan o'zgani dema,

Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Ahlu-ayol, qarindosh, hech kim bo'lmaydur yo'ldosh,

Mardona bo'l, g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Qul Xoja Ahmad, toat qil, umring bilmay necha yil,

Asling bilsang obu gil, yana gilga ketaro.

Bunday ashulalarni hozirgi zamonaviy shoirlar ijodiga xos she'r, g'azallar bilan aytiladigan juda ko'p namunalari yaratilgan. Shoir H.Olimjon (Kuygay, O'rik gullaganda), Sobir Abdulla (Farg'ona ruboiysi, Xush kechar umrim mening), Chustiy (Hech unutmang bir-birimizga g'animat hammamiz), Nihoniy (Hamzaning- O'xshaydiku), shuningdek Charxiy, Habibiy, Mirtemir, Trob To'kla, Saida Zunnunova, Po'lat Mo'min, Haydar Yahyo, Yodgor baxshi Isxalov kabilarning she'rlariga bastalangan xalqona ohanglar va mumtoz-maqom yo'llariga monanad yaratilgan qo'shiqlarni mumtoz asarlar qatoriga kiritish mumkin.

Shoir Muqumiy, Ogahiy, Furqat she'rlari bilan aytiladigan mumtoz qo'shiqchilikda alohida bir yirik qatlamni tashkil qiladiki, bu ashulalar el sevgan ulug' san'atkor-hofizlar Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Rasul qori Mamadaliyev, Mulla to'ychi toshmuhammedov, Halima Nosirova, Saodat qobilova, Nazira Axmedova, Komiljon Otaniyozov, Xojixon Boltayev kabilar ijrosida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, ma'naviy mulkiga aylangan.

She'riyat musiqa va ijrochilik birikmasi natijasi sifatida xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom ashulalarining tarbiyaviy imkoniyatlari juda katta. Bu imkoniyatlardan ta'lim tarbiya jarayonida foyda yo'llarini aniqlash va foydalanish mazkur ishga dahldor o'qituvchi, murabbiylar oldiga ulkan mas'uliyatni qo'yadiki, ularning bu boradagi tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, o'z mahoratini tinmay oshirib borishi, takomillashtirib borishi lozim bo'ladi. Hozirgi kunda musiqa san'ati, xususan qo'shiqchilik san'ati bilan deyarli har kuni muloqatta bo'lmaydigan kishini tasavvur qilish qiyin. Bunda radeo, televideniyaning tutgan o'rni va ahamiyati ayniqsa juda katta. Lekin shuni unutmaslik kerakki, musiqani

shunchaki tinglash bilan, ta'lim jarayonida tinglashning juda katta farqi bor. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga taqdim etilayotgan asarning g'oyaviy-badiiy mazmuni, mualliflari, janr xususiyati, uslublari(qaysi mahalliy uslubga mansubligi), mashhur ijrochilari, asarning tuzulishi va hokazolar haqida zarur ma'lumotlar beriladiki, ular o'z navbatida o'quvchilarning asar haqidagi tushuncha va tasavvurlarini aniq bilish tarzida shakllanishiga ilib keladi. Bunday ta'limning uzluksiz-davomiyligi esa o'quvchilarni xalq musiqa marosi haqida mukammal bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishligini ta'minlaydi. Bu hol mutlaqo tabiiydir. Buning yana bir muhim jihati shundan iboratki, dars jarayonida musiqa tinglashda o'quvchilar bu faoliyatni muhim ishtirokchilari sifatida o'zlarini namoyon etadilar. Ular dars davomida berilayotgan ma'lumotlarni, nimalarnidir eslab qolish, o'zlashtirish, bilib olish, kelgusida bu haqda javob berishi lozimligi mas'uliyatini his etishadi, diqqatini to'plab ishtirok etishga harakat qilishadi.

Xalq musiqa merosiga mansub folklor, mumtoz kuy-qo'shiqlarni o'quvchilarni ongi, sezgisi, musiqiy idrokiga ta'siri (ijobiy) murakkab psixologik jarayon bo'lib, bunda o'qituvchi kasbiy mahorati bilimdonligi, qo'llagan ish usullari, pedagogik yondoshuv va texnik ko'rgazmali vositalardan o'z o'rnida foydalangan holda darsni tashkil etilishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tinglanayotgan asarni kuy, ashula ijrolarini mahorat va yuksak cholg'uchi, hofiz tomonidan ijro etilishi xonandani yoqimli ovozi, kuyning musiqiy bezalishi asarning estetik ta'siri va qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Bu yerda kuy, matn, ijrochi o'rtasidagi mutanosiblik buzulsa u tinglovchini qoniqtirmasligi va badiiy-estetik qimmatini pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi asarlarni tanlashda qo'shiq, kuyning ma'nosi va mohiyati, musiqa, she'riy matn va ijrochi mahoratining barcha sifatleri birligini namoyon etilishiga va shu orqali tinglovchilarning ma'naviy-badiiy, estetik dunyoqarashlariga emotsional tasirini ta'minlashlari zarur. Ana shundagina mazkur jarayon kuzlagan natijalari ga erishish mumkin bo'ladi.

Ishimizning ushbu bobida bayon etilgan fikrlar, mulohaza va tahlillar quyidagicha xulosalar chiqarishimizga asos bo'la oladi:

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni xalq musiqa merosi xususan, mumtoz kuy-qo'shiqlar bilan tanishtirish orqali ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning keng imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, amaliy faoliyatda bu imkoniyatlardan o'rinli foydalanilmayapti. Buning sabablari juda ko'p va turlicha omillarga bog'liq bo'lib uning eng asosiylari quyidagilardir:

1. Umumta'lim maktablari musia darslarida o'quvchilarga o'zbek mumtoz musiqasi bo'yicha ta'lim standarti talablari darajasida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratilmaganligi;

2. O'quvchilarni mumtoz musiqa bilan tanishtirib boorish, o'rganish, tahlil qilish, baholay olish kabi malakalarni egallashlari uchun zarur metodik manbalar, adabiyotlar, fonetika, ko'rgazmali, texnik vositalar bilan ta'minlanmaganligi;

3. Musiqa o'qituvchisi tayyorlashga yo'naltirilgan oily pedagogik ta'limning "musiqiy ta'lim" yo'nalishlarida o'qiyotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mumtoz musiqa bo'yicha maktab faoliyatiga tayyorlashning pedagogik asoslari va metodik tizimi ishlab chiqilmaganligi;

4. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning mumtoz musiqa bilan tanishtirib borish, shu jarayonda ularda xalq musiqa merosiga qizg'in, barqaror qiziqtirishni shakllantirish borasida to'plangan tajribalarni yetarli emasligi;

## **II BOB: MUMTOZ KUY-QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIIY- USLUBIY ASOSLARI.**

### **2.1. Musiqa darslarida o'quvchilarga mumtoz musiqa haqida beriladigan bilim va tushunchalar mazmuni.**

O'bek xalqining tafakkuri, diyonati, milliy qadriyatlari, donishmandligini Respublikamiz Prezidenti I.Karimov: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlikda ko'rgan edi.

Vatanimizning kelajagi unda yashayotgan barcha fuqorolarning aqliy, jismoniy va ma'naviy kamol topishiga bog'liq. Ana shundan kelib chiqib biz bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni milliy madaniy meros va uning mazmunida ifodalangan g'oyalardan yoshlarni, ma'naviy, axloqiy, estetik madaniyatini tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratmog'imiz lozim.

Pedagogika sohasidan tashqari falsafa, etika, estetika, psixologiya, san'atshunoslik sohalarida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning e'tirof etishlaricha xalq milliy musiqa merosi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy madaniyatini shakllanishida ahamiyati benihoya katta. Xalq og'zaki an'anadagi milliy musiqa merosida milliy qo'shiqlar alohida o'rin tutadi. Psixolog olimlarning qayd etishlaricha xalq qo'shiqlari milliy ohanglari va mazmuni bilan inson bosh miyasi joylashgan yarim shardagi asab qoplamasi, asab tomirlari, miya qobig'ining eng yirik, eng nozik boshqa hech qanday narsa ta'sir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Shu bois ham buyuk alloma Abu Nasr Farobiy "musiqa nafaqat insonni, balki uning ruhini tarbiyalaydi" deb bejiz aytmagan. Chindanam musiqa san'ati kishilar hayotida muhim o'rin tutib, ularni ezgu ishlarga rag'batlantirib, qalbida oliyjanob tuyg'ular uyg'otib, go'zal kelajak yaratishga ilhomlantirib kelgan.

Ibn Sino fikricha bolalarni jismi uchun yengil tarbiya va alla aytish paytidagi qo'shiq bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishida katta rol o'ynaydi.

Xalq musiqa merosi tarkibidagi mumtoz qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib, qon-qoniga singib ketgan chinakam xalqchil, milliy san'at turi hisoblanadi. Shuning uchun ularni hech kim befarq tinglay olmaydi. Mumtoz qo'shiqlar estetik tarbiya omili bo'lmasdan, balki o'ziga xos ma'naviy tarbiya hamdir. Og'zaki an'anadagi rivojlanib kelgan xalq qo'shiqlarini, ya'ni folklor, mumtoz yo'nalishga mansub namunalarni puxta o'rganib, tinglab ijro etish o'quvchi-yoshlarni milliy musiqa merosimizga muhabbatini, shu orqali milliy o'zlikni anglash hissiyotlarini shakllanishiga samarali ta'sir etadi. Bu o'z navbatida ularda: Ona Vatan va ona xalqiga bo'lgan muhabbatini, insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, qarindosh-urug'chilik rishtalarini qadrlash, do'stlikni e'zozlash, inson mehnatiga, u orqali yaratilgan ne'matlarga shukronalik, ilm olish, jamiyat taraqqiyoti uchun kurashish, ideallar sari intilib yashash tuyg'ularini kamol topishiga olib keladi. Aynan manashular milliy g'oya va mafkuraning mazmun mohiyatiga xosligi bilan yosh avlod ta'limi va tarbiyasi oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani amalga oshishida qudratli omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy xalq musiqasining, xususan xalq qo'shiqlari mumtoz va maqom tarkibiga kiruvchi ashulalarning ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri-uning inson ichki kechinmalariga, hissiyotlariga kuchli ta'sir etishidir. Mumtoz va maqom asarlarini badiiy-emotsional his etish, ma'naviy-axloqiy va o'z mohiyatiga ko'ra mafkuraviy madaniyatni shakllantirishning eng muhim ta'sirchan vositasi hisoblanadi.

Bizga ma'lumki milliy musiqa merosimiz o'tmishdan ikki asosiy yo'nalish, ya'ni bir-biridan paydo bo'luvchi, bir-birini to'ldiruvchi, shu bilan birga alohida o'ziga xos xususiyat sifatlariga ega bo'lgan yo'nalishlarda rivojlanib kelgan. Bulardan biri musiqiy folklor bo'lsa, ikkinchisi xalq orasidan chiqqan istedadli sozanda, xonanda ijodkorlar tomonidan yaratilgan kasbiy "ustozona" musiqadir. Ustozona musiqa hozirgi kunda "mumtoz" musiqa nomi bilan yuritiluvchi yerik shakl va janrlardagi, og'zaki an'anadagi professional musiqa (maqom, maqom yo'llari nomi bilan yuritiladigan mumtoz ashulalar) shuningdek hozirgi kunda ham

davom etib, mumtoz she'r, g'azallarga bastalangan ashulalar, katta ashulalar ham doston qo'shiqlarini o'zida ifoda etadi.

Umumta'lim maktablarining oltinchi sinfida yil mavzusi "Mumtoz musiqa" deb nomlanadi. Shunga ko'ra o'quv yili birinchi choragida o'quvchilarga "Mumtoz musiqa haqida tushuncha" berish, uning sara namunalarini tinglash, o'quvchilar imkoniyatiga mos uncha murakkab, katta diapazonga ega bo'lmagan namunalarini kuylash, mumtoz musiqa san'atining yorqin namoyondalari (hofizlar, hofizalar) bastakorlar hayoti va ijodi bilan tanishtirish, ko'zda tutilgan.

O'quv yilining ikkinchi choragi esa o'zbek xalq musiqa merosiga yaqin, qadimiy ildizlari tutash "Sharq xalqlari mumtoz musiqasi" bo'yicha zarur va bilim tushunchalar beruvchi materiallarga o'rin berilgan.

Uchunchi chorakda esa xalq musiqa merosi negizida rivojlanayotgan zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumotlari bilan tanishtiriladi.

To'rtinchi chorakning mavzuyi "Yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha" deb nomlanib uning mazmunini Yevropa xalqlari musiqa madaniyatida shakllangan klassik musiqaning jahon xalqlari musiqa madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri, bugungi kundagi ahamiyati, dunyo tan olgan buyuk namoyondalari ijodi haqidagi muxtasar bilim va ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirish, shu orqali ularning musiqiy tafakkuri, dunyoqarashini boyitish ko'zda tutilgan.

Oltinchi sinf musiqa darsligining so'z boshisida mazkur sinfda o'quvchilarga "Musiqasi madaniyati" darslarida beriladigan asosiy bilim, tushuncha, ma'lumotlar mazmuni va mohiyatiga qisqacha izoh berilgan bu o'quv yili davomida o'rganiladigan o'quv materiallari mohiyatini ifodalash bilan xarakterlanadi: "Aziz o'quvchilar! Tavsiya etilayotgan oltinchi sinf "Musiqasi" darsligi sizlarni musiqa ijodiyotining mumtoz olami bilan tanishtiradi. Mumtoz musiqa har tomonlama yetuk va mukammal bo'lgan asarlarni o'z ichiga oladi. Insoniyat taraqqiyotiga hamohang keng rivoj topgan mumtoz musiqa xalqimiz ma'naviy xazinasidan joy olgan ulkan merosi hisoblanadi. Ular har bir avlod tomonidan qunt bilan o'rganilgan va kelajak uchun munosib voris bo'lishga

da'vat etuvchi ijodiyotning ulkan manbai bo'lib kelgan. ... Mumtoz musiqa xalqlarning milliy an'analari bilan sug'orilgan ma'naviy boyligi bo'lib, ularni o'rganish va ardoqlash har bir inon kamoloti uchun zarurdir. O'ylaymizki, darslikka kiritilgan mavzular kelajagi buyuk O'zbekistonimizning barkamol avlodiga xos tuyg'ularni shakllantirishga, Vatanga, xalqimizga xos bo'lgan munosabatingizni yanada oshirishga xizmat qiladi".

Darslikda yuqorida aytib o'tilganidek 1-chorak materiallari "Mumtoz musiqa haqida tushuncha" rukni ostida quyidagi mavzular bo'yicha o'quv materiallari tizimlashtirilgan. Mumtoz musiqa, mumtoz kuylar, mumtoz ashula Shashmaqom-mumtoz musiqamiz asosi, katta ashula, Farg'ona-Toshkent vohasining mumtoz musiqasi, Surxandaryo va Qashqadaryo mumtoz musiqasi, mumtoz musiqaning madaniyatimizdagi tutgan o'rnini klassik (klassik iborasi mumtoz so'zi bilan ma'nodosh) musiqa. Keying chorakda Sharq xalqlari mumtoz musiqasi, uchinchi chorakda zamonaviy musiqa, to'rtinchi chorakda Yevropa mumtoz musiqasiga oid materiallarga o'rin berilgan.

O'zbek mumtoz musiqasi haqida beriladigan bilim, tushunchalar 1-chorak o'quv dasturi mazmunida mujassam etilgan va nihoyatda qisqa ma'lumotlar bilan cheklangan. Bizning nazarimizda bunday holat o'quvchilarda bu san'at yo'nalishi haqida to'laqonli, standart talablarida ko'rsatilgan darajada bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish imkonini bermaydi. 9 soatlik o'quv faoliyatida o'quv dasturiga kiritilgan musiqa savodi, qo'shiq kuylash faoliyatiga oid o'quv materiallarini ham ko'zda tutilganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, fikrimizni to'g'riligiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Mumtoz musiqa haqida beriladigan ma'lumotlar mazmunini tahliliga kelsak dastlabki darslarda "mumtoz musiqa" haqida tushuncha berish ko'zda tutilgan. Shundan mumtoz kuylar, mumtoz ashulalar haqida so'z yuritiladi, ulardan namunalar tinglash tavsiya etiladi. "Shashmaqom"- mumtoz musiqamiz asosi ruknida beriladigan bilimlar mazmunida Shashmaqomning tarizi, 6 ta maqom birikmasi ekanligi, ularning nomlari, shu o'qinda O'zbekistonda mavjud to'rt mahalliy uslubga xos mumtoz musiqa Farg'ona-Toshkent vohasining mumtoz

musiqasi, Xorazm mumtoz musiqasi, Surxandaryo-Qashqadaryo mumtoz musiqasi, ularning o'ziga xos janrlari cholg'u va aytimlari, cholg'u sozlari, atoqli xonanda va sozandalar haqidagi ma'lumotlar ularga mansub namunalarni nota yozuvlari bilan berilgan. Mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash uchun berilgan savollar va topshiriqlar o'quvchilarni qo'shimcha manbalardan foydalanish, mustaqil izlanishlarini ko'zda tutadi. Mumtoz musiqaning eng yuqori pog'onasi bo'lmish maqom san'ati haqida 7-sinfda alohida o'rin ajratilgan. Ya'ni darslikning 1-choragi Respublikamizdagi 4 ta mahalliy uslubga bag'ishlangan, II-charak "Maqomlar haqida umumiy tushuncha" berishga mo'ljallangan o'quv materiallarini o'z ichiga oladi. Ushbu mavzu mazmunida olti maqom (Shashmaqomning nomlari, ularning cholg'u kuylari tasnifi), usullari (o'lchovi), cholg'u (mushkilot) kuylarini tizimlanish tartibi, Shashmaqomning ashula(nasr) yo'llari, tizimlanish tartibi, Xorazm maqomlari, Xorazm maqomlarining chertim yo'li, tizimlanish tartibi, Xorazm maqomlarining aytim yo'li, ularning tuzilish tartibi, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari (cholg'u yo'llari, ashula yo'llari) tasnifi keltiriladi. Mazkur mavzular doirasida Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga xos namunalarni tinglash, tahlil qilish, ijro usullari (o'lchov, ritm), mashhur namoyondalari haqidagi ma'lumotlarga ham qisqa tarzda bo'lsa-da o'rin berilgan.

Albatta darslik va dasturga kiritilgan, tavsiya etilgan barcha namunalarni o'quvchilar o'zlashtirishi shart degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bunda eng asosiysi o'quvchilarda mumtoz musiq haqida tushuncha hosil qilish, ularni idrok etish, his etish, farqiga borish, munosabat bildira olish va eng asosiysi muhabbat va qiziqish uyg'otish va ayrim ijrosi, usuli murakkab bo'lmagan namunalarni ijro eta olishga o'rgatish eng asosiy maqsad va vazifa bo'lmog'i lozim.

## **2.2. Mumtoz kuy- qo'shiqlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish shakl va uslublari.**

O'zbek musiqa san'atining bebaho namunasi bo'lgan mumtoz asarlar milliy qo'shiqchiligimiz rivojini yanada yuksaltirishda muhim asos bo'lishi bilan birga shaxs, xususan yosh avlod tarbiyasida, ularni milliy-ma'naviy kamol topishlarida alohida ahamiyatga ega.

Mumtoz qo'shiqlar- bu qo'shiqchilik san'atining eng mukammal va noyob namunali bo'lib, ulardagi nola, qochirim, xonish, nolish, tebratma, yoyish-salmoqlash kabi kuylash uslubiga xos unsurlarni namoyon etgan talqinlari tinglovchi hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi, unda olijanob tuyg'ularni vujudga keltiradi.

Musiqa darslarida o'quvchilarga o'zbek mumtoz musiqa haqida beriladigan bilim, tushunchalar tub mazmunida xalqimizning musiqa madaniyatining asrlar osha bizga yetib kelgan va ular ta'sirida hozirgi kunda ham yaratilayotgan, ijro etilayotgan nodir merosni qadrlash, asrab-avaylash, o'rganish orqali milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashning ilmiy-pedagogik tizimini yaratish va hayotga tadbiiq qilish musiqiy ta'limni o'qitishning muhim muammolaridandir.

O'zbek mumtoz musiqasi vositasida shakllangan badiiy did, badiiy nafosat, musiqiy madaniyat va xalq musiqa merosiga ongli munosabat unsurlari sarasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Musiqiy asarning g'oyaviy mazmuni hamda ularda aks etgan badiiy obrazlarni, lirik kechinmalarni tasavvur qilish;
2. Musiqiy asar g'oyaviy mazmunining ohanglarda aks etishiga e'tibor berish, ularda o'zaro mutanosiblik va sinixronlikni anglash;
3. Kuy va ohangni mukammalligini ta'minlovchi o'ziga xos ijro talqinlarini sezish, ko'ra bilish, baholay olish;
4. Ijrochining ijro mahoratini baholay olish;
5. Asarlarning turli murakkablik darajasini anglash, ijro usuli (o'lchov-ritm), ohang bo'yoqlari, tovlanishlarini idrok etish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish;
6. O'z ijro imkoniyatlarini bilgan holda namunalarni ijro eta olish malakalariga ega bo'lish;

Mumtoz qo'shiqlarning badiiy qimmatini eng muhim jihatlaridan biri uning matni va uning mazmunida ifodalangan yuksak fikr, g'oyalarni o'zida mujassam etganligidadir. Xalq ichidan chiqqan mohir bastakor va hofizlar yaratayotgan asarlariga mumtoz she'riyatimizning eng nodir namunalarini tanlashga alohida e'ribor berishgan. Musiqa madaniyati darsligiga kiritilgan "Shashmaqom", "Farg'ona-Toshkent maqomlari", "Xorazm maqomlari" dostonchilik qo'shiqlari, katta ashulalarda Lutfiy, A.Jomiy, Navoiy, Miskin, Atoiy, Nodira, Zebuniso, Mashrab, Ogahiy, Feruz, Muqumiy, Furqat, S.Abdulla, Habibiy, H.Olimjon kabi buyuk shairlarning asarlaridan o'rinli foydalanilgan.

A.Navoiy g'azallari bilan kuylanadigan "Cho'li iroq", "Ul sarvi gulru kelmadi", "Shitob aylab", "Nasrullayi", "Nim cho'poni", "Koshki", "Qoro ko'zim", "Sayqal", "Guluzorim", "Topmadim", "Muhtalo bo'ldim senga", "Ne navo soz aylagan", "Ne ajab" kabi ashulalar xalqimizning bebaho boyligi hisoblanadi. Bunday asarlarni tinglash, tahlil qilish jarayonida yuksak ijod namunasi bo'lgan asarlar o'zining bag'oyat boy poetikasi bilan o'quvchilarni o'ziga maftun etadi va ularni o'rganish, kuylashga ishtiyoq, qiziqish, havas uyg'otadi.

Shoir, bastakor va san'atkor mehnatidan hosil bo'ladigan san'at mahsulida uch san'at yo'nalishida ijod qiluvchilarning mahorati, istedodini birlashtiruvchi, ularning tinglovchilarga yetkazmoqchi bo'lgan muhim jihati asarlarning g'oyasi va unga mos musiqiy ohangning milliyligidir. Ona-Vatan tuyg'usi, ota-onani hurmat qilish, mehr-oqibat, do'stlik, udeal muhabbat singari muqaddas his-tuyg'ular bu asarning tub mazmunida yotadi. Qo'shiq matni mazmunini tahlili, badiiy ijrochilikka oid unsurlari tahlili, qaysi san'atkor hofizlar tomonidan ijro etilganligi, o'quvchilarga mumtoz musiqa haqida chuqur va keng ma'lumot va tushunchalarga ega bo'lish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarga bu ishga ehtiyotkorlik, tayyorgarlik bilan yondoshishni talab qiladi:

1. O'quvchilarning mumtoz o'zbek musiqasiga bo'lgan munosabatlarini o'rganish, ularning mumtoz kuy va qo'shiqlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlari darajasini aniqlab, dars jarayonida e'tiborga olish;

2. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, ovoz imkoniyatlari, iqtidorlarini hisobga olib ish tutish;

3. O'quvchilarning qiziqishlari, ovoz imkoniyatlari, iqtidorlari, bilim darajalari hamda ijro ko'nikmalariga muvofiq ular tomonidan o'rganiladigan namunalarni tanlash;

4. O'quvchilarda mumtoz qo'shiqlarni ijro etish ko'nikmasini shakllantirish imkonini beruvchi ish shakl, usul va vositalaridan o'z o'rnida va unumli foydalanish va mashg'ulotlarni pedagogik-psixologik hamda metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish;

5. Mashg'ulotlarda texnik va ko'rgazmali vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish;

Musiqqa darslarida mumtoz asarlarni o'rganish va kuylashga nisbatan ularni tinglash, tahlil qilish o'quvchilarda bu san'at turiga nisbatan to'g'ri munosabat-qiziqish, qadrlash, o'rganishga xoxish, kelgusida unga vorislik qilish tuyg'ularini shakllantirishga yetakchi ahamiyat berish lozim. Chunki mumtoz ashulalarning aksariyat qismi ijrosi murakkab, diapazoni keng, ritm-usuli ham ularni o'quvchilar tomonidan talab darajasida kuylashlari uchun qiyinchilik tug'diradi. O'z ovoz imkoniyatlariga zid, keng diapazondagi ashulalarni o'rgatish metodik jihatdan ham to'g'ri bo'lmaydi va buni musiqqa o'qituvchilari yaxshi bilishi lozim.

Shuning uchun dars jarayonida o'qituvchi tinglanadigan asar haqida, ularning mualliflari, yaratilish tarixi, mashhur ijrochilari, o'ziga xos ijro uslublari, murakkablik jihatlariga oid ma'lumotlarga yetakchi o'rin ajratish va albatta mumtoz namunani yetuk xonanda hofizlar ijodiyotida tinglashga ahamiyat berishi kerak bo'ladi. Bular esa darsning samaradorligini taminlashda muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi.

Mumtoz asarlar mavzusiga oid darslarda o'qituvchining pedagogik mahorati, qo'llagan metodi, texnik va ko'rgazmali vositalar va eng muhimi o'qituvchining shaxsiy namunasi asosiy rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchilarda mumtoz musiqqa asarlarini tinglash o'rganish uchun muayyan ko'nikma va

malakalar hosil qilishda quyidagi jihatlarga jiddiy e'tiborda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Asarni o'quvchilar tomonidan katta qiziqish va his-hayajon bilan tinglashlariga erishish;

2. Tinglash orqali o'quvchilarda muayyan savol-javoblar o'tkazishga qiziqtirish, fikr bildirish, baholash, yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga intilishni vujudga keltirish;

3. Asarni nazariy, amaliy (ijrochilik uslublari), badiiy tomondan tahlil qilish;

4. Asarni frazalarini sinchiklab tahlil qilish;

5. Undagi nozik qochirim va nolalarga ta'rif berish;

6. Ashulalar matnidagi tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarni sharhlash;

7. Ijrodagi rang-baranglik o'ziga xoslik, dinamik tuslarni ifoda etish mahorati, kuylash va chalishdagi musiqiy bezaklar haqida batafsil to'xtalish.

Bulardan tashqari o'qituvchi o'z imkoniyatiga mos keladigan namunalar bo'yicha repertuar tanlashi va ayrim asarlarni kuylashlari uchun o'rgatib borishi mumkin. Mahorat bilan tanlangan repertuar, musiqiy asarlarni o'quvchilar ovoz diapozoniga mos kelishiga erishish asarni, o'rganishda nafasni to'g'ri olish, so'zlarni aniq talaffuz qilish, ovoz intonatsiyasini hosil qilish, past va yuqori registrlarda ovozni to'la, sof jarangdorligiga erishish nihoyatda muhim.

Mumtoz musiqaga oid mavzularni o'tishda sinf xonasining jihozlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo' o'rinda mumtoz ashulalarning taniqli namoyondalari o'zbek mumtoz adabiyot vakillari, bastakorlarning portretlari, ular haqidagi ma'lumotlar, asarlarni nota yozuvi, o'quv-texnik vositalar magnitafon, magnit tasmalari, iloji bo'lsa videomagnitafon bo'lishini ta'minlash ko'zda tutiladi.

Mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan, interfaol metodlardan unumli foydalanish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashlari uchun imkon yaratish, asarlar badiiy qimmatini anglash g'oyaviy-badiiy mazmunida aks etgan g'oyalarni qalbdan his qilishlariga erishish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yana bir jihat o'quvchilarni mumtoz musiqa ijodiyoti bilan maqsadli tanishtirish xilma-xil nazariy va amaliy faoliyat turlarini qo'llanishini taqozo etadi. Umumiy o'rta ta'limning musiqa fani bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlarida ta'limning ma'lum bosqichida o'quvchilar o'zlashtirishi zarur va yetarli bo'lgan o'quv materiallarini talab darajasida o'zlashtirishga erishish uchun qo'shimcha ta'lim bloki imkoniyatlaridan va sinfdan tashqari badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun ham biz o'z tadqiqotimizning amaliy faoliyat yo'nalishida sinfdan tashqari ishlar mazmuni va dastur ishlab chiqildi. O'quvchilarning mumtoz namunaning so'z va musiqa aloqadorligini tushunishlari uchun o'zbek xalq qo'shiqlari xususiyatlarini o'rganish, bunda ikki asosiy vazn aruz va barmoqning tuzulishi bilan tanishish jarayoni nazariy, ko'rgazmali, tinglash va ijro yo'nalishida amalga oshirildi.

Aruz – uzun va qisqa bo'g'unlarning almashinib kelishiga asoslangan vazn.

O'qituvchi aruzning bo'g'un tuzulishida uzun bo'g'unlar ustuvorligiga e'tiborni tortadi. Aynan uzun bo'g'unlarning qisqa bo'g'unlar ustidan ustuvorligi mumtoz shoirlar she'rlariga favqulotda musiqiylik bag'ishlaydi.

Aruz qoidalari va ohangi asosida yozilgan matn tarkibining o'zaro aloqadorligi ayniqsa maqom ayimlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kuy she'ring tarkibiy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, barmoq she'r tuzulishidagi 7-8 bo'g'inli misralarga, bandlarga tayanadigan qo'shiq ohangi odatda qisqa bo'ladi. Ko'p misralarga asoslangan she'r ohangi shakliga ko'ra nisbatan cho'ziq bo'ladi. She'r tuzulishi ko'pincha qo'shiq shaklini belgilaydi. O'zbek mumtoz she'riyatida ruboiy, murabba deb nomlanadigan to'rtlik keng tarqalgan. U kichik shakldagi o'zbek xalq qo'shiqchilik matnida ko'p qo'llaniladi. U o'ziga munosib musiqiy shaklga ham ega bo'lib, qofiyalanmagan uchunchi misra odatda qo'shiq avjiga to'g'ri keladi va shu yo'sinda avj bilan bog'lanib ketadi. O'zbek mumtoz adabiyatida eng mashhur va ko'p uchraydigan she'r shakli g'azaldir. Unda dastlabki ikki misra hamda keyingi juft misralar o'zaro qofiyalangan bo'ladi (O'rtar, Qoro ko'zim, Dugoh Husayn, Yolg'iz topmadim).

O'zbek mumtoz she'riyatida ko'p qo'llaniladigan she'riyat shakllaridan yana biri muxammasdir. Bu shaklda birinchi banddagi besh misraning barchasi o'zaro qofiyadosh bo'ladi. Keyingi bandlardagi beshinchi misra birinchi bandning beshinchi misrasi yoki birinchi bandning barcha misralari bilan qofiyalanadi (Guluzorim, Sog'ligin qadrinib bil, Ey sabo, Qoshi yosinmu deyin, Injost, Kuygay, Tortadur, G'amzasin sevding kungul, Ahli suhbat hammamiz, O'zbekistonda, Janon bo'laman deb, Topmadim).

Endi mumtoz asarlarni o'rganish va kuylash borasida qanday jihatlarga e'tibor qaratish, hisobga olish haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Tajriba-kuzatuvlar maqom va qo'shiqchilik bo'yicha yetuk xonandalar, pedagog-o'qituvchilar va san'atshunoslar fikrlarida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

1. Ovoz tembrining to'g'ri tanlanishi. Mumtoz qo'shiqlarni ijro etish Estrada yoki xalq ommaviy janrlaridagi folklor qo'shiqlarini kuylashdan bir muncha farq qiladi. Bunda ovoz salmoqli salobatli yangrashi, ijrochilar ovoz diapazoni kamida bir yarim va ikki oktava oralig'ida bo'lishi, shuningdek(quyi registr) va yuqori pardalar (yuqori registr) tembri barqaror bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Pastki pardalarda baland va yuqori pardalarga past kuylanganda ashula go'yoki har xil (uch kishi) xonandalar tomonidan kuylangandek taasurot uyg'otadi. Bu mumtoz qo'shiqchilik an'analariga ziddir. Ovoz diapazonining muayyan maromida bo'lishi barcha frazalarda me'yorida kuch sarflash hamda ovoz jarangdorligini ta'minlash ishlarini beradi.

2. Ovozdagi elastiklikning ta'minlanishi mumtoz qo'shiqchilikka bir xil balandlikni qat'iy taminlaydigan ovozlarning bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Ma'lum pardada barqarorlik saqlanganda ham ovoz sekidan balandlikka(tovush kuchi) qattiqdan mayinlashish kabilarni tekis kechishi (sakrashlarsiz) shuningdek yuqorilatish va pasaytirishga nisbatan moyillik ko'rsatilishi orqali tebranib, salmoqli ijro etilishi lozim.

3. Intervallar bo'yicha amalga oshiriladigan sakratma harakatlarda ham ovozni uzmasdan glissando qilish texnikasini egallash. Ayrim hollarda muayyan

pardadan biroz ko'tarilib pasayishi, mantiqan ma'lum me'yorda kuylay olish ko'nikmasini talab qiladi.

Nola va qochirimlardan o'rinli foydalanish ijro mahoratining yuqori bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy farshlaglardan tortib, murakkab o'ttiz ikkitalik notalardan iborat namunalarda ham qiynalmay kuylay olish xonandadan doimiy izlanishda bo'lishni taqozo etadi va bu ijro mahoratining muhim elementi, texnikasi hisoblanadi.

4. Asar ohangiga putur yetkazmasdan qo'shimcha pardalarda ijro etish. Bunda turli qochirimlardan foydalanish ham hofiz mahorati, malakasini belgilovchi jihatlardan sanaladi.

So'zlar talaffuzidagi salmoqdorlikni taminlash, unli va undoshlarning talaffuzida xalqona zeb va aksentlarni bera olish, qoshimcha harflar (talaffuz) birikmalaridan foydalana olish (jumladan "nga" kabi) undoshlarni dumog'da cho'zib turish va ohanglarni to'g'ri kuylash kabi texnikalarni puxta o'zlashtirish ijro mahoratini ta'minlovchi omillar sarasiga kiradi.

5. Ovozning jozibali va yoqimli bo'lishi. Mumtoz ashula ijrosi uchun kuchli ovozga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Kishi ovozida bir-birinikiga o'xshamaydigan yoqimli ohang, tembr, joziba, kuch, talaffuz kabilar asarni ko'pchilik qalbiga chuqur singib ma'naviy mulkiga aylanishi hofizni elga tanishtiruvchi omillardan biridir. Yoqimli ovoz, uni asrash, undan mohirona foydalanish esa ijrochidan ijodiy izlanish, doimiy ravishda mashq qilib borishni talab qiladi.

Mumtoz ashulalar nafaqat kuyi, musiqiy matni, balki chuqur mazmunga ega she'riy matni bilan ham badiiy qiymatga ega. Mumtoz she'riy matnlarda bugungi kunda iste'molda bo'lmagan eskirgan so'zlar sifatida aytiluvchi atamalarning mavjudligi matn ustida jiddiy ish olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi. G'azallarni o'rganishdagi murakkab jihat ijrolarda ifoda etilgan mavjud so'zlarning mazmunan, mantiqan bir-biriga birikishi asosida shakllangan mazmunni anglab olishdan iborat,

She'riy matnlardagi o'xshatishlar, solishtirishlar, tashbehtar, ruhiy holatlar, obrazlarga xos sifatning bo'rttirib tasvirlanishi kabi holatlar o'quvchilarda ularni mazmuni, mohiyatini anglash va kuylashda muayyan qiyinchiliklar to'g'irish tabiiy. Bu jarayonda bizningcha quyidagi tarzda yondoshuv va ish tutish samarali natijalarga erishish imkonini beradi:

1. Mumtoz ashulaning matni (g'azal) larning mazmunini o'rganish, o'quvchilarga uni g'oyat tushunarli va ta'sirli qilib tushuntirish;
2. Matni ifodali o'qish, yod olish, so'zlarni aniq va ta'sirchan talaffuz qilish;
3. Asar ohangini (ijrosini) diqqat bilan (bir necha bor) tinglash, ijro uslubi (ton, ritm, sur'at, diapazon)dan to'g'ri foydalanish;
4. Ashula ijro yo'lini yodda saqlash, uni ovozda imitatsiya qilish, o'qituvchiga ergashib kuylash;
5. Ashulani cholg'u musiqasi yordamida kuylash;
6. O'z ijrosini musiqiy yozuv ijrosi bilan taqqoslash, kamchiliklarini aniqlay bilish va ular ustida mustaqil ishlay bilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
7. Ijrochilik malakasini o'zlashtirish yo'lida ijodiy izlanish;

O'quvchilarning g'azal mulkini to'g'ri va puxta tushunib olishlari, asarda ifodalangan obrazlarni yaqqol tasavvur qilishlarida she'riy matni zanjirli kompozitsiya asosida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Zanjirli kompozitsiyaning asar mazmunini to'g'ri va tushunarli bo'lishiga imkon berishini quyidagi misolda ko'rish mumkin;

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim.

Ko'rgazib yuz mehr, ming dardi balosin ko'rmadim.

Misraning birinchi qismida muayyan fikrni anglatuvchi poetik tezis keltirilgan bo'lsa, uning ikkinchi qismida poetik tezisni xulosalovchi sintez berilgan.

Ikkinchi misradagi poetik tezis birinchi misradagi poetik tezisni kuchaytirib, o'zi ham kuchaytirilgan sintez bilan yakunlanadi. Navbatdagi bandeda ham she'riy drammatizm kuchaytiriladi:

Kimga boshimni qildim fido, jonim qasdig'a,  
Har tarafdin yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim.

G'azalning uchinchi bandida fikriy rivojlanish yakuniga yetib, mehr-muhabbat haqida o'zgacharoq davom ettiriladi.

Kim kungil ayladi, mehru-muhabbat fosh kim,  
Har vafoga yuz jafo, oning jafosin ko'rmadim.

Ushbu o'ringa qadar bildirilgan fikrlarga qarama-qarshi tarzda shoirning ayrim kishilarga ko'rsatgan mehri o'rniga ulardan jafo topganligi bayon etiladi. Shunday qilib antisintez asosida hosil bo'lgan sintez ham asar dramatzimini yanada kuchaytiradi.

Ey Navoiy, tavba indin qilmadim shayx oldida,  
Kim bu ishda dayri pirining rizosin ko'rmadim.

Endi ushbu g'azal bilan ijro etiluvchi mumtoz ashulaning ohang tuzilmasini tahlil qilamiz:

1-Misra. Ko'ngil dardini bayon etuvchi lirik musiqa bilan boshlanadi. Poetik firka bayoni asta-sekin rivojlanib boradi va sintezlanadi.

2-misara. Dastlabki holat aynan qaytarilganligi uchun ohang deyarli o'zgarmaydi. Ammo uning o'zgacha yechim uchun yo'naltirilganligi seziladi. Ovozning teran va tarangligi kuchayadi.

3-misra. Yuqori pardada kuch bilan boshlanganligi hofiz ijro dramatzimida (obrazlilikda) eng kuchli hayajon, holat ifodasi musiqiy nola, achinish, hasratli o'kinch sifatida namoyon bo'ladi.

4-misra. Yuqoridagi holat takrorlanadi "hayotda aksariyat shunday bo'ladi" degan to'xtamli fikr yuzaga keladi.

5-misra. Ohang pastki pardaga ko'chib, asta-sekin rivojlanib avj pardaga ko'tariladi. Shoir tasvirlayotgan nohaqlikninig tantanasi bastokor va hofizning norozilik-fig'onini kuchaytiradi. Bu ohangning tobora avjlanishi orqali ifodalanadi.

6-misra. Yana quyiga "qaytish" kuzatiladi, "taqdirni o'zgartirish insonning qo'lidan kelmaydi" -degan fikrlar xulosaviy o'z aksini topadi.

7-misra. Rivojlanish asta-sekinlik bilan yuqorilab kulminatsion nuqtaga yetadi.

8-misra. Mantiqiy xulosaning shakllanishi uchun sokin ohang yuzaga keladi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash o'rinlidir. Mumtoz asarlarga bag'ishlangan mashg'ulotlarda o'quvchilardan ham she'riy matni, ham musiqiy ohangda mujassam bo'lgan ko'p ma'nolilikni birday anglab olishlarini talab qilish ham metodik jihatdan to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Chunki, bunday talab o'quvchilar uchun imkoniyat darajasidan og'ir va murakkab bo'lishi, o'zlashtirishlarida qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Shu sababli o'quvchilardan qo'shiq, g'azal mazmunidagi eng muhim g'oyani tushunib yetishni talab qilishning o'zi yetarlidir.

Mashg'ulotlar jarayonida mumtoz asarlarni o'rganishda mashhur xalq hofizlarining ijrolarini tinglash, eng muhim ish usullaridan hisoblanadi. Hofizlarning o'ziga xos ijro uslublari, ishlatilgan nola, qochirimlar, bezaklar avjlar talqini bilan yaqindan tanishish, ijrolarni taqqoslash, tahlil qilish, usullarini chapakda chalib, stolga chertib imitatsiya qilib o'rganish musiqa ta'limi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Zero, mumtoz asarlar o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyash, shu orqali ularda milliy g'oya, milliy mafkura ruhidagi sifatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, mumtoz qo'shiq va ashulalarning mazmun va musiqiy jihatdan mukammalligi, g'oyaviyligi barcha yoshdagi kishilar e'tiborini o'ziga torta oladi. Milliy mumtoz qo'shiqlarning umrboqiyiligini ta'minlovchi omillardan yana biri har qanday zamon va makonda ham insonlarning ma'naviy ehtiyojini qoldirish kuchiga ega bo'lganligidir.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek mumtoz musiqamizning asosi, gultoiji bo'lgan maqomlar haqidagi bilim va tushunchalar 7-sinf ta'lim mazmunida kuzda tutilgan. Maqomlar haqida o'quvchilar ta'lim standarti mezonlari darajasida kerakli bilim, tushunchalarni berish, tinglash, kuylash, asarlarni tahlil qilish, baho berish, farqlash, munosabat bildirish ko'nikma va malakalarni shakllantirish musiqa o'qituvchisidan katta uslubiy mahorat talab qiladi. Eng avvalo, o'qituvchi darsning har bir faoliyati bo'yicha beriladigan mavzularga ajratilgan vaqtni to'g'ri taqsimlay bilishi lozim.

Maqom san'ati, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, ularning ashula va cholg'u qismlari haqidagi mavzularni quyidagi bosqichlarda o'rganishni o'rinli deb biladi:

1. Musiqa savodi faoliyatida o'quvchilarga bevosita maqomlar haqida, ularning shakllanish tarixi, maqomat tizimi va ularning nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlar haqida tushuncha berish lozim. O'qituvchi darsda mumtoz kasbiy musiqada "maqom" atamasining ko'p talqinli ma'nolari haqida tushuncha berib o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "maqom" atamasi arabcha "o'rin", "joy", "daraja", "martaba" ma'nolarini ifodalaydi. Maqomshunos olim I.Rajabovning ta'rifiga ko'ra "cholg'u asboblarida tovush hosil etiladigan joy" ya'ni kuy boshlanadigan parda tushunchasini ifoda etadi. Shunga ko'ra har bir maqom ma'lum parda (lad)dan boshlanadi- deb maqomlarning nomlari ularning pardalarini yozib ko'rsatishi hamda cholg'u asbobida maqomning lad tovush qatorini chalib beradi. Shundan so'ng Shashmaqom turkumidagi, yoxud Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nomlarini sharhlaydi.

Ovoz sozlash jarayonida o'quvchilar bilan maqom tovush qatorlarini kuylash ham yaxshi natija beradi.

2. Musiqa tinglash faoliyatida esa darsni quyidagi tartibda tashkil etishi maqsadga muvofiq:

1) Tinglanadigan namuna haqida eng muhim tushuncha (namuna qaysi maqomga tegishliligi, tovush qatori tayanch pardasi, o'lchov-usuli, mazmun va mohiyati haqida so'zlab)beradi;

2) Musiqiy namuna o'qituvchi ijrosida yoki audio yozuv vositasida tinglanadi. Yozuv mohir san'atkorlar eshittirilsa uning badiiy-emotsional ta'sirchanligi yuqori bo'ladi. O'qituvchining jonli ijrosi esa asarning ta'sirchanlik kuchini yanada yuqori darajada bo'lishligini ta'minlaydi;

3) Tinglangan lavhani suhbat-bahs, savol-javob, bahs-munozara yo'li bilan musiqiy va badiiy-g'oyaviy jihatdan oddiy, tushunarli tahlil qilish;

4) Musiqiy lavha namunani bir butunligicha qaytadan tinglash hamda asar haqida o'quvchilarning umumiy taasurotlari yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish;

3. Navbatdagi bosqichda maqom kuyining usulini o'zlashtirishga kirishiladi. O'qituvchi kuyning usulini o'quvchilarga chapak yoki "bum-bak" bo'g'larida ko'rsatib beradi. Bu usul o'quvchilar tomonidan takrorlanadi va o'zlashtiriladi.

4. Darsning asosiy faoliyati bo'lgan qo'shiq kuylash jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

- Nasr (ashula) bo'limi tarkibiga kirgan katta, murakkab bo'lmagan namuna tanlanadi (soqiynomalar, qashqarcha va uffor usullarida);

- O'quvchilar ovoz diapazoni, ijrochilik imkoniyatlari hisobga olinadi va maqom shu'balarning avjlari tushurib qoldirishi mumkin.

- O'quvchilarning yosh, fiziologik, psixologik xususiyatlariga ko'ra ularni zerikib, toliqib, ovozni zo'riqtirib qo'ymasliklari e'tiborda tutiladi.

Maqom ashulasining matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyini osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun kuylashdan oldin matni kuyga solib o'rganish yaxshi samara beradi. Keyingi bosqichlarda:

- Namuna haqidagi dastlabki emotsional taasurotlar hosil qilish (tinglash orqali.);
- Namunani musiqiy – nazariy tahlil qilish (lat, o'lchov, temp, usul necha qismliligi);
- Namunani so'zlari ustida ishlash (talaffuz qilish, ayri tushunish qiyin so'zlarni sharhlash.);
- Namunani qismlarga bo'lib o'rganish;
- Namunani bir necha marta qaytarish orqali mustahkamlash;
- Asarning badiiy ijrosi ustida ishlash;

Maqom mavzusidagi darslarda namunalarni tinglash, o'rganishda o'quvchilar zarur bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari uchun darsning har bir faoliyati, metod va usullari, maqsad va vazifalari, qo'llaniladigan vositalar avvaldan puxta ishlab chiqilgan, rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Albatta bu jarayon darsdan-darsga qarab uzluksiz davom etadi. Avval belgilangan bilimlar asosida Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga oid nisbatan oson o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan shartlarni bajarish musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishga, kelajakda yangi usul va uslublarni ishlab chiqishga muhim zamin yaratadi. Shu kabi ishlarning natijasi o'laroq xalqimizning mumtoz musiqa merosi bo'lgan milliy qadriyatlarimizni yosh avlod ma'naviyatiga singdirish va shu orqali barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmani muvaffaqiyatli amalga oshirish yuzaga keladi.

### **III BOB: MUMTOZ KUY-QO'SHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISH TIZIMI VA UNING SAMARADORLIGI.**

#### **3.1. Mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati.**

Umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" darslarida o'quvchilarni Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilangan o'quv materiallarini talab darajasida o'zlashtirishlari jarayonida ularning mumtozlik xususiyati, asar matnidagi yuksak mumtoz she'riyatning nafis va nozik, g'oyat jozibali va dunyoviy va diniy axloqiy qarashlar, sharq falsafasining eng mukammal g'oyalarini, xalq pedagogikasining nodir fikr xulosalari bilan yug'rilgan namunalari mazmun va mohiyatini ma'lum darajada bo'lsada tushunish, his qilish, anglash, tafakkur qilish, ular haqida ongli tasavvur qilishlariga erishishni ta'minlash bizning tadqiqotimiz asosiy vazifasini tashkil etishi tufayli, tadqiqotni olib borish jarayonida uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lgan umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz musiqasiga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish borasida tajribalarni o'rganishga e'tibor qaratdik.

Umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" darslarida o'zbek mumtoz musiqasi namunalarni o'rganish, tahlil qilish va shu jarayonda mumtoz ashulalar matnida aks etgan g'oyaviy-badiiy mazmuni, jumladan mumtoz she'r va mumtoz qo'shiqning uyg'unligi bilan sinxronlashgan badiiy obrazlarni, voqelikni o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganligi borasidagi amaliy faoliyatni kuzatish o'quvchilarning mumtoz musiqani tinglash, o'rganish, u haqidagi ma'lumotlarga qiziqishlari, xohish-istaklari, ehtiyojlarini tahlil qilish bizni o'ziga pedagogik yondoshuv, uslub va vositalarga tayangan holda ish tutishga undadi. Birinchi sainfdan yettinchi sinfgacha bo'lgan musiqa darslariga kiritilgan mumtoz musiqa namunalarni, ularning murakkablik darajasiga ko'ra quyidagi tartibda o'rganish dastlabki bosqichda maqsadga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaliyotini o'rganish, o'quv dasturlari va darsliklari bilan tanishish birinchi-yettinchi sinflarda o'rganish lozim bo'lgan o'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlaridan xabardor qilish jarayonida ularning g'oyaviy-badiiy mazmunini, ijro uslublarini yaxshi bayon qilishlariga erishish zarurligini tasdiqladi. Bu ayni bizning tadqiqotimiz maqsad va vazifalariga mos ekanligini ko'rsatar edi.

O'quvchilarni mumtoz kuy-qo'shiqlar bilan tanishtirish, asarlar haqida suhbatlar o'tkazish, tahlil qilish orqali ularni mumtoz musiqa haqidagi nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirishlariga hamda bevosita bu faoliyat o'quvchilarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalanishlariga ijobiy ta'sir etishini ta'minlashda quyidagi shakl va metodlardan foydalanildi.

1. O'rganiladigan mumtoz kuy-qo'shiqlarni eng avvalo o'quvchilarga magnit tasmlari(audio, video, magnitafon va hokazo) yordamida tinglatish;
2. Musiqa fani o'qituvchisining o'zi: cholg'u asboblari yordamida ijro etib ko'rsatish;
3. Taniqli sozanda, xonandalarni taklif etish orqali ular bilan uchrashuv tashkil qilish vaqtida o'rganilishi ko'zda tutilgan asar mohiyati bilan tanishish;
4. Asar matni uning g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan tanishtirish;
5. Asar matnidagi notanish so'zlarni lug'at orqali va adabiy-badiiy izohlash;
6. Musiqa to'garagining a'zosi bo'lgan o'quvchilar ijrosida o'rganilayotgan asarni tinglash;

Xuddi shunday ish shakl va usullarini musiqa ta'limi amaliyotida sinab ko'rish jarayonida tadqiqot obyektiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 6-sinf musiqa darslaridagi yil va chorak mavzulari bo'yicha darslarni tashkiliy va pedagogik asoslarini, uning mavjud jihatini va o'quvchilar tomonidan sinf darsligidan o'quv materiallarini qay darajada o'zlashtirilish darajasini, o'quvchilarni yil va chorak mavzulari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga ijobiy ta'sir etishga yo'naltirilgan ish shakl va usullarini samaradorligini aniqlashga kirishildi.

Musiqqa darslarida mumtoz asarlar bo'yicha (ularni o'rganish, tinglash) samarali tashkil etish eng avvalo o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakllariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. O'zbek mumtoz musiqqa ijodiyoti xalq ashulalari, maqom, ashula va kuylariga asoslanib yaratilgan ashulalar hamda maqom turkumiga kiruvchi kuy-qo'shiqlar, maqomlarning nasr va mushkilot yo'llari turkumlari, cholg'u sozlari haqida qiziqarli dalillarga tayangan holda suhbatlar o'tkazish, o'zbek xalqiga yaqin qardosh xalqlar musiqqa ijodiyotiga xos bo'lgan musiqiy atamalar, iboralar, ashula ayimlari, turkumlari, yo'llari, yo'nalishlarini taqqoslash yo'li bilan tushuncha berish o'quvchilar ongida mustahkam saqlanib qolishiga olib keladi. Bu o'rinda musiqqa o'qituvchisi tashabbuskor, izlanuvchan bo'lishi lozim. Uning o'zi har bir mavzu bo'yicha yetarlicha bilim va tushunchaga ega, darslikdagi o'quv materiallari ma'lumoti bilan cheklanib qolmasligi, qo'shimcha adabiyotlar, o'zbek, sharq mumtoz adabiyotiga oid bilimlardan yaxshi xabardor bo'lishi, darslarda ulardan o'z o'rnida foydalanishni bilishi lozim bo'ladi.

Bir soatlik dars davomida ilg'or pedagogik texnologiyaning muhim tamoyillaridan biri "oz vaqt sarflab, yuqori natijalarga erishish mumkin".

Yuqori sinf darsliklaridan joy olgan musiqiy asarlarni aksariyati mumtoz asarlar bo'lganligi uchun mumtoz musiqqa mavzusidagi ma'lumotlarni faqatgina 6-sinfda berishdan cheklanmasdan, bu haqda barcha darslarda hattoki 1- sinfdan boshlab 7-sinfgacha izchil, davomiylik asosida berib boorish yaxshi samara beradi. Shunda 6-sinfga kelganda mumtoz musiqqa haqidagi tushunchalar o'quvchilar uchun "yangilik" bo'lib qolmaydi.

Mumtoz musiqqa, sharq xalqlari mumtoz musiqasi bilan tanishtirishda o'quvchilarning xohish istaklariga ko'ra badiiy-havaskorlik to'garaklariga jalb qilish va to'garakda ularga mustaqil ravshda kuy-qo'shiqlar o'rgatish ham samarali ish usullaridan hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar sharq xalqlari qo'shiqlarini, raqslarini o'rganmishadi, turli bayram tadbirlarida chiqishlar qilib o'z mahoratlarini ko'pchilik oldida nomoyish etib borishadi.

Mumtoz musiqasi haqida bilim va tushunchalarni darsning barcha faoliyatlarida olib borish va ularning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlariga qabul qilishida quyidagilar o'qituvchi orqali o'quvchilarga yetkazilishi belgilanadi.

#### Musiqaning tinglash faoliyat turida.

1. Biror musiqaning tinglanganida uning bastakori, dinamik belgilari, qaysi maqom turkumidan va cholg'u yo'lidanligi haqidagi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish;

2. O'qituvchi jonli tarzda biror mumtoz musiqani chalib tinglatish bilan o'quvchilarda cholg'u asbobiga mehr va qiziqish uyg'otish yoki shu fursat musiqaning ashula yo'lini xom xirgoya qilib o'tish;

3. Shashmaqomning mushkilot qismidan kuylar eshittirish, tinglangan kuylar va o'zbek xalq kuylarini tasmlarda eshittirilganda o'quvchilardan qaysi kuy yoki qo'shiqdan ekanligini so'rab boorish;

#### Jamoa bo'lib kuylash faoliyat turida.

1. Mumtoz qo'shiq matnining mazmuni, uning ta'limiy va tarbiyaviy tomonlari bilan o'quvchilarni xabardor qilish;

2. Mumtoz qo'shiq, kuy yo'li, doira usuli va undagi ohang, nolalarni o'z o'rnida ishlatishni tushuntirish;

3. Qo'shiqni o'z talab darajasida kuylab ko'rsatish va buni o'quvchilarga o'rgatish;

4. Shashmaqomdagi maqomlar nasr qismidagi taronalarni jamoa bo'lib kuylashga o'quvchilarni jalb etish;

#### Musiqaning savodi faoliyat turida.

Bunda musiqaning nazariyasi bilan birga maqomlar haqidagi nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish.

6-7- sinflar uchun musiqaning madaniyati fani darsurida va darsligida mumtoz musiqaning xalq kuy-qo'shiqlari va bu to'g'rida ma'lumotlar ko'plab berilgan. Bundan tashqari musiqaning madaniyati o'qituvchisining imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'quv asarlarini o'zi tanlab o'tish imkoniyatiga ega. O'qituvchi bu imkoniyatlardan

foydalanib o'quvchilarga tanish va eshitgan asarlarini ya'ni mumtoz qo'shiqlarni o'rgatish mumkin. Bular "Ey nozanin", "Sinaxiroj", "Tohir va Zuxro dueti", "Dutorim", "O'rtar", "Ko'rmadim" va boshqalardir. Biz pedagoik-amaliyotda bo'lgan maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borar ekanmiz, bunda 4-sinfdan 7-sinfgacha bo'lgan bolalarga musiqa darslarini olib bordik. Ushbu amaliyot jarayonida alohida to'xtalgan faoliyatim 6-7-sinflarning musiqa darslari bo'ldi.

Birinchi dars ular bilan tanishuv musiqa haqidagi tasavvurlarini bilish va fikrlarini eshitish bilan o'tdi. Keyingi darslarimga men o'zimga kerakli bo'lgan o'quv materiallari, ko'rgazmali qurollar va dutor cholg'u asbobi bilan kirdim. Dastlab o'quvchilar dutor cholg'u asbobini o'yinchoqqa qaraganday, qiziqqonlik va kulgu bilan qarshi olayotganligini sezdim. Ular meni har xil savollar bilan ko'mmaslaridan, ularga men dars faoliyatining birinchi turi musiqa tinglash ekanligini aytib o'tdim va ko'rib turgan asboblarini dutor cholg'u asbobi ekanligini, dutorning tarixi va unga xos bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishtirib o'tdim. So'ngra unda "Tanovor" musiqasini chalib o'quvchilarga tinglatdim.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyat turidagi dars qismida esa dutor jo'rligida "Ey nozanin" qo'shig'ini o'rgatishga kirishdim. Ushbu faoliyat turidan so'ng "Musiqa savodi" faoliyat turida "Shashmaqom va mumtoz musiqa" haqidagi nazariy bilimlarni va musiqa nazariyasi mavzuyidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazdim. O'tgan har bir darsimda o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun turli xil metodlardan foydalanib dars olib bordim. 7"b"-sinf o'quvchilari oradan bir yarim oy o'tgandan so'ng menga va musiqa darsiga ancha hurmatda darsga qiziqishlarini dars davomida intizomlari, qiziqishlari, davomatlari hamda mumtoz kuy-qo'shiqlarimizga bo'lgan e'tibori, intilishlaridan angladim. Ular har bir musiqani tinglaganlarida odob bilan, har bir qo'shiqni o'rgana boshlaganlarida qunt bilan meni tinglashar edi.

Tajriba o'tkazish maqsadida maktab musiqa o'qituvchisidan so'rab u dars beradigan 7"a"-sinfini o'z sinfimga birlashtirib dars olib bordim. Ularga musiqa savodidan va musiqa nazariyasidan savollar berganimda men dars olib brogan sinf

o'quvchilari 90% a'lo darajada javob berishdi. 7" a"-sinf o'quvchilari esa 50% javob berdilar. Musiqa tinglash va qo'shiqlarni kuylashlarida ham xuddi shunday natija ko'rsatdilar. 7" a"-sinf o'quvchilari an'anaviy uslubda dars olganliklari, darslarida cholg'u asboblardan kam foydalanganliklarini, mumtoz musiqa haqidagi bilimlarining sayozligini ko'rsatishdi. 7" b"-sinf o'quvchilari esa o'zlarining tirishqoqliklari va yondosh sinfdagi tengqo'r o'rtoqlaridan ustunligini ko'rsata oldilar. Hatto ularning ko'pchiligi milliy cholg'u asbobini sotib olish ishtiyoqida ekanliklarini aytdilar. Maktabda bo'lib o'tgan bayramlarda 7 "b"-sinf o'quvchilaridan bir nechtasi mumtoz qo'shiqlardan namunalar kuylab bera oldilar. Bu esa mening mehnatlarim samaradorligi bilan birga Davlat ta'lim standartining dastur ishi samarodarligidan dalolat beradi. O'tkazilgan darslarda mumtoz musiqa bilan yonma-yon yuqori sinf o'quvchilarining nazariy bilim va malakalar, musiqiy faoliyatlari olib borilgan mashg'ulotlar ijobiy va sezilarli natija beradi. Har bir darsda har xil cholg'u asboblarni sinfga olib kirilsa, ular haqida qisqacha ma'lumot berib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali o'quvchilar cholg'u asboblari bilan yaqindan tanishib boradilar.

### **3.2 Tajriba –sinov ishlari tahlili.**

Mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari uchun tajriba maydoni sifatida Samarqand shahridagi 29 sonli va Pastdarg'om tumanidagi 17-sonli umumta'lim maktablari tanlandi.

Olib borilgan tadqiqot va tajriba-sinov ishlari natijalariga tayangan holda o'quvchilarda mumtoz musiqa namunalarini tinglash, o'rganish, tahlil qilish, u haqdagi turli suhbat, uchrashuv, konsertlar va video filmlarni tomosha qilish jarayonida milliy musiqamizga xos eng muhim xususiyatlarni, shu orqali milliy o'zlikni his etish, ularda milliy ong, milliy mafkura va milliy g'oyaga xos xislatlarni shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar ishlab chiqildi.

1. Mumtoz musiqaning xalq musiqasining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlari (mumtoz she'riyat namunalari bilan aytilishi, yuksak ijod mahsuli ekanligi, rivojlanganlik tuzulishiga ega bo'lishi va boshqalar);
2. Mumtoz iborasi haqida aniq tushunchaga egaligi;
3. Mumtoz musiqa asarlari nomi, she'r mualliflari, bastakorlari haqida bilimlarini kengayganligi (ko'p bilishi);
4. Asarlar nomiga ko'ra bastakorlar, hofiz va g'azal mualliflari nomini aytib berishlari;
5. Asar g'oyaviy-badiiy mazmuni haqida tushunchaga egaligi, o'z fikrini bildira olishi;
6. Asarga tavsif bera olishi;
7. Asarning tarbiyaviy imkoniyatlari haqida tushuncha va tasavvurga egaligi;
8. Asarda uchraydigan va ijroda qiyinchilik tug'diradigan notanish so'zlar ma'nosini bilishlari;
9. Asardagi eng nozik qismlar, hayajonli o'rinlar, ijrochi mahorati bo'yicha ham tasavvur hosil qilganliklari;
10. Ayrim namunalarni o'z imkoniyati darajasida kuylay olish hamda o'z ijrosini to'g'ri baholay olish ko'nikmasining shakllanganligi.

Shundan so'ng tajriba-sinov ishlarini o'tkazish rejasi ishlab chiqilib unga ko'ra bu jarayonni muddati, tajriba-sinov shakli, holati (dars va darsdan tashqari) belgilandi. Reja asosida tajriba-sinov ishlari mazmunini aks ettiruvchi dastur ishlab chiqildi. Uning mazmunida sinflarda yil va charak mavzulari bo'yicha beriladigan bilimlar, mavzular bo'yicha darslarni o'tkazilish shakllari, usullari va foydalaniladigan vositalar yaratildi.

### **Tajriba- sinov ishlari natijalari tahlili.**

Tanlangan sinflardan biri **tajriba** sinfi, ikkinchisi esa **nazarot** sinfi sifatida belgilandi. Tajriba-sinov ishlari o'quv yilining 3-4-choragi vaqtiga to'g'ri kelganligi bois tajriba boshida 6-sinf 1 va 2-chorak o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida 1-chorak mavzusi "Mumtoz muasiqa haqida tushuncha" hamda 2-chorak mavzusi

“Zamonaviy muasiqa va uning asosiy xususiyatlari” mavzusiga oid darslik materillari asosida savollar tuzildi va ikkita sinf o’quvchilariga tarqatildi. Savollarga javoblar yozma shaklda berilishi ko’zda tutilib har bir savol (savollar 20 ta) ga besh ballik tizimda baholash lozim topildi. Shunga ko’ra o’quvchilarning bilim va tushunchalarini baholovchi “a’lo” (81-100 ball), “yaxshi” (61-79 ball), “o’rta” (41-59 ball), “qoniqarsiz” (40 balldan past) kabi ko’rsatkichlar bilan aniqlashga qaror qilindi.

Tanlangan sinflarning o’quvchilari bizning tavsiyamizga o’z javoblarini tushunarli va ixcham, aniq ifodalashlari, har bir savolga javoblar besh ballik tizimda baholanishi bunda aniq va mazmunli javob “5” ball, o’z tushunchasini ma’lum darajada tushuntirib bera olganligi “4” ball, javoblarda noaniqlik va mavhumlikka yo’l qo’yilgan bo’lsa “3” ball, umuman noto’g’ri va javob berilmagan savollar “qoniqarsiz” 2 ball bilan baholanishi va ulardan imkon qadar bu ishga jiddiy yondoshishlari tushuntirildi.

Tajriba boshida ikkala sinf o’quvchilarining savollarga javoblariga ko’ra natijalar quyidagi ko’rinishda bo’ldi.

1-jadval.

Tajriba boshida

SINFLAR	O’QUVCHILAR SONI	O’zlashtirish ko’rsatkichlari				
		“a’lo”	“yaxshi”	“o’rta”	“qoniqarsiz”	Sifat ko’rsatkichi
Tajriba sinfi	30	4 13,3%	6 20%	11 36,7%	9 30%	70%
Nazorat sinfi	30	5 10%	7 23,3%	10 33,3%	10 33,4%	66,6%

Jami:		7	13	21	19	68,4
	60	11,7%	21,7%	35%	31,7%	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarni umumiy bilim va tushunchalari tajriba sinfida (sifat ko'rsatkichi 66,6 %) deyarli uncha katta farq yo'q va bu ko'rsatkichni talab darajasida deb bo'lmaydi, albatta. Chunki har bir sinflardagi qoniqarsiz o'zlashtiruvchi o'quvchilar 30 va 33% ni tashkil etishi jiddiy tashvishli holatdir.

Shundan so'ng biz o'zimizning tajriba-sinov ishlarimizni shakllantiruvchi bosqichi dastur talablari asosida tajriba sinfida 3 va 4-chorak mavzulari bo'yicha tezlantirilgan tizimda mashg'ulotlar olib bordik, Nazorat sinfida esa darslar oldingi holatida maktab musiqa o'qituvchisi tomonidan olib borildi. Mashg'ulotlar dars va darsdan keyin (sinfidan tashqari) faoliyatda haftada ikki martadan aniq reja asosida olib borildi. Mashg'ulotlar biz o'z ishimiz ikkinchi bobida ilgari surgan ish usullari va shakllari asosida ko'rgazmali, texnik vositalardan unumli foydalangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borildi. Darslarda asosiy e'tibor musiqa namunalarini tinglash, tahlil qilish, taqqoslash, savol-javob, mustaqil topshiriqlar berish va mustahkamlashga qaratildi.

Tinimsiz davom etgan to'rt oylik mashg'ulotlardan so'ng tajriba-sinov davrida o'tilgan mavzular bo'yicha 20 tadan iborat savollar tajriba va nazorat sinflari o'quvchilarga tarqatildi va javoblar xuddi tajriba boshidagi uslubda baholandi.

Natijalar quyidagi ko'rinishda bo'ldi:

2-jadval.

Tajriba oxirida

SINFLAR	O'QUVCHILAR	O'zlashtirish ko'rsatkichlari				Sifat ko'rsatkichi
		"a'lo"	"yaxshi"	"o'rta"	"qoniqar"	

	SONI				siz”	%
Tajriba		12	12	5	1	96,7%
Sinfi	30	40%	40%	16,7%	3,3%	
Nazorat		4	8	10	8	73,3%
sinfi	30	13,3%	26,7%	33,3%	26,7%	
Jami:		16	20	15	9	85 %
	60	26,7%	33,3%	25%	15%	

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, darslar oldingi holatda o’tilgan “nazorat sinfida”gi o’quvchilar o’zlashtirishida o’zgarish ijobiy tomonga atiga 5,7 % darajada bo’lgani holda biz ish olib brogan **“tajriba sinfi”** dagi ijobiy o’zgarish 26,7 % ni tashkil etdi. Ikkila sinfdagi umumiy o’zgarish 16,6 % ni tashkil etdi.

Pedagogik tajriba –sinov natijalarini tahlil etishda matematik statistika metodi qo’llanildi. O’quvchilarning tajribadan keyingi o’zlashtirishlari quyidagi jadvalda aks etgan.

3-jadval.

Mumtoz musiqa vositasida o’quvchilarda milliy g’oya va mafkurani shakllanganlik darajalari.

SINFLAR	O’QUVCHILAR SONI	Shakllanganlik darajalari.			
		“a’lo”	“yaxshi”	“o’rta”	“qoniqarsiz”
Tajriba		12	12	5	1
Sinfi	30				

Nazorat		4	8	10	8
sini	30				

Bu ko'rsatkichlarni foizlarda hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz. Har bir o'quvchining o'zlashtirish koeffitsenti foizlarda  $K = \frac{J}{O} \cdot 100\%$  formula orqali topiladi.

Bu yerda J= o'tkazilgan tajribada savollarga berilgan javoblar soni  
O= o'quvchilarning umumiy soni.

4-jadval.

Mumtoz musiqa vositasida o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllanganlik darajalari.

N/=	Sinflar Baho	Tajriba	. Nazorat
1	A'lo	$K1 = \frac{12}{30} \times 100\% = 40\%$	K2=
2	Yaxshi	$K1 = \frac{12}{30} \times 100\% = 40\%$	K2=
3	O'rta	K1=	$K2 = \frac{10}{30} \times 100\% = 33,3\%$
4	Qoniqarsiz	K1=	K2=

Olingan qiymatlar asosida student-fisher ktiteriyasini qo'llab matematik statistic tahlil qilamiz.

Tahlil natijasida matematik kutilish, tanlanma kutilish, tanlanma diskersiya, o'tracha kvadratik chetlanishlar va oraliq intervallar topildi.

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$D_e$	$D_k$	$T_e$	$T_k$	$B_e$	$B_k$	$\Delta e$	$\Delta k$
4,1	3,7	0,58	0,64	0,76	0,8	0,19	0,22	0,07	0,08

Natijalardan tajribadan oldingi va keying ko'rsatkichlar uchun ishonchli intervallari topildi.

$$\bar{X} - t_y \times \frac{D_m}{\sqrt{m}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_y \times \frac{D_m}{\sqrt{m}}$$

$$4,1 - 0,07 \leq a_x \leq 4,1 + 0,07$$

$$4,03 \leq a_x \leq 4,17$$

$$\bar{Y} - t_y \times \frac{D_n}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_y \times \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$3,7 - 0,08 \leq a_y \leq 3,7 + 0,08$$

$$3,6 \leq a_y \leq 3,78$$

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum  $\bar{X} = 4,1$ ;  $\bar{Y} = 3,7$ ;  $\Delta m = 0,07$ ;  $\Delta n = 0,08$ ga teng

Bundan

sifat

ko'rsatkichlari:  $K_{ycb} = \frac{(\bar{X} - \Delta m)}{(\bar{Y} + \Delta n)} = \frac{4,1 - 0,07}{3,7 + 0,08} = 4, \frac{03}{3},78 = 1,07 > 1.$

$$K_{bob} = (X - \Delta_m) + (Y + \Delta_n) = (4,1 - 0,07) - (3,7 - 0,08) = 4,03 - 3,63 = 0,41$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilim darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagi o'zlashtirishdan yuqoriligini bu esa biz qo'llagan ish usul va shakllarini ijobiy samaradorlikka ega ekanligini va tadqiqotimizning ilmiy farazini to'g'ri o'z isbotini topganligini ko'rsatdi. Bu bilan tadqiqot maqsadini ijobiy yechim topganligini isbotladi.

## UMUMIY XULOSA.

Umumta'lim maktablarining oltinchi sinf o'quvchilari bilan Sharq xalqlari mumtoz musiqasi va maqomlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning nazariy-amaliy bilim va shakllantirish mumkinligi haqidagi ilmiy ishlarimiz, sinov tajriba ishlari natijasida o'rinli ekanligini ko'rsatdi.

Ilmiy ishlarimiz manbalarini kuzatish va olib borilgan sinov-tajriba ishlari natijasida quyidagi xulosalarni keltrib chiqardik.

1. Mumtoz musiqa, xususan Sharq xalqlari musiqasi haqidagi bilimlarni nazariy va amaliy shakllantirish boshlang'ich sinflardan boshlab olib borilishi lozim.
2. Boshlang'ich sinfda olingan bilimlar va ularga tayangan holda yuqori sinf larda mumtoz va maqom, Sharq xalqlari musiqasi to'g'risidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish.
3. Mumtoz va maqom musiqa haqidagi bilimlarni shakllantirishda bir qator uslublardan foydalanish zarurati mavjud bo'ladi va ular quyidagilardan iborat.
  - Mumtoz va maqom musiqasi haqidagi nazariy tahliliy suhbatlar.
  - Asar mazmunini xalq an'analari, urf-odatlar bilan bog'lash.
  - Asarlarning qanday kayfiyatni uyg'otganligi, ifodalagani haqida fikr yurutish.
  - Mumtoz qo'shiq kuylanganda uning birinchi ijrochisi va kim tomonidan basatalanganligini o'rganish.
  - Qo'shiqlarni o'z talabi asosida aniq, burro, ifidali kuylashga intilish.
  - Mumtoz qo'shiq kuylaganda uning qochirim, nola va ohanglarini kuy uyg'ulgida ijro etishga o'rganish.
  - Mumtoz musiqa va maqomlarimiz kuy-qo'shiqlarimiz tinglanishni o'rganish.
  - Mumtoz kuy-qo'shiqlarning doira usullarini tushunish va ularga kuylaganda amal qilish.
  - Cholg'u sozlaridagi ifodaviylik, ta'sirchanlik va badiiylikka e'tiborni qaratish.
  - O'quvchilarni yakka holda namuna sifatida kuylatish va kuylashga o'rganish

4. O'tkazilgan sinov- tajriba ishlari va ko'rsatilgan xulosalarda pedagogik amaliyotda va musiqa darslarida keng foydalanish mumkin va zarur.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Sharq xalqlarining mumtoz asarlarini o'rganishda quyidagi uslublarda alohida e'tibor berish tavsiya qilinadi.

1. Mumtoz asarlar mavzusini o'zbek xalqiga yaqin bo'lgan xalqlarning mumtoz asarlaridan o'rganishni boshlash lozim.

2. Asarlarni jonli ijro etib berish nafaqat o'quvchilarni balki pedagog-amaliyotni o'tayotgan talabalarning ham badiiy didini o'zgartirishga sharoit yaratib beradi.

3. Har bir Sharq mamlakatlari millatiga xos mumtoz musiqalarni o'rganishda, uni o'zbek xalq mumtoz musiqasi bilan solishtirib ko'rish, cholg'u sozlaridagi o'xshashlik milliy an'alaridagi o'zaro mutanosiblik, ularning didini yanada boyitadi.

4. Har bir millatning mumtoz asarlarini kuylaydigan ashulachilari va sozandalari haqida gapirib berish, darsni qiziqarli o'tishga va faktlarni mustahkam yodda saqlab qolishga sharoit yaratib beradi.

5. Yangi yaratilgan mumtoz asarlarni namunali kuylash va kuylatish mumtoz asarlar tarixiga mansub emasligi va doim yangilanib turushi haqidagi tasavvurni kengaytiradi.

6. Har bir millat mumtoz asarlaridan namunalar kuylatish, asar haqidagi tasavvurni jonlashtirishga va bora-bora bu tasavvurni kengaytirib borishga yo'l ochadi. Asarning eng yoqimli joydan namuna olib kuylatish o'quvchilarni o'z ustilarida mustaqil ishlashlariga ham undaydi.

7. O'quvchilar o'z tengqo'rlaridan eshitgan narsalarini tez esda saqlab qoladilar va shuning uchun ham o'quvchilarni namuna sifatida kuylatish tajribasidan keng foydalanish foydadan holi emas.

8. Talabalarning pedagogik amaliyoti nafaqat o'quvchilarning badiiy didini balki bo'lajak musiqa mutaxasislari ya'ni talabalarning badiiy didini o'stirishga to'la imkon beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.A. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7-Tom.-T.: O'zbekiston, 1999y.-413b.
2. I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.2-Tom.-T.: O'zbekiston, 1996 y.-379 b.
3. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi.-T.: O'zbekiston, milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000y.
4. I.A. Karimov. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyoti,1997y.
5. I.A. Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili - T.:O'zbekiston, 1995y.
6. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008y.
7. I.A. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: Ma'naviyat, 2011y.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi." -T.:Ma'rifat, 1998-y. 1-aprel.
9. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Musiqa. -T.: Ta'lim taraqqiyoti, 6-7-maxsus sonlar, 1999y.
10. Umumtalim maktablari musiqa dasturi.-T.: O'qituvchi, 1996y
- 11.O'zberiston Respublikasi Prezidentining "O'zberistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbiri to'g'risida"gi farmoni. 1995-y, 20-oktyabr. -T.: O'zberiston ovozi, 1995y, 21-oktabr.
- 12.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: -A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993y,225b.
- 13.Aloviya M O'zbek xalq qo'shiqlari.-T.:O'zdavnashr.1959y,44b.

14. Axmedov M. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, -T.: O'qituvchi, 1974y,95b.
15. Axmedov M. Yunus Rajabiy. -T.:G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995y,152b.
16. Boboyeva A. Mug'om va musulmon madaniyati.|| Saodat jurnali. 1990y,9-son,15-bet.
17. G'ofurbekov T.B. Folklorn'ee istoki uzbekiskogo professionalnogo tvorchestvo. -T.: O'qituvchi,1984y,117 str.
18. Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1909y,146b.
19. Karamatov F.M. Xalq musiqasi. ("O'zbek musiqasi tarixi" kitobidan). -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981y,169b.
20. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi o'zbek professional musiqa asoslariga kirish. -T.: O'qituvchi, 1983y.
21. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. -T.: O'zberiston Badiiy adabiyot nashriyoti, 1963y.300b.
22. Umarov E. Estetika (Nafosatshunozlik). Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 1995y, 246b.
23. Makomi, mugami I sovremennoe kompozitornoe tvorchestvo. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978y,134b.
24. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. -T.: Sharq-NMAK bosh tahririyati,2001y.159b.
25. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. -T.: Fan, 1993y, 56b.
26. Shashmaqom. Yozib oluvchi. Y.Rajabiy. -T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y.
27. Muqumiy va Furqat ashulalari. 1-kitob. To'plovchi I.Akbarov. -T.: O'zdavnashr, 1958y,339b.
28. Navoiy so'ziga musiqalar. Nashrga tayyorlovchi I.Akbarov -T.: O'zdavnashr, 1949y,122b
29. Nasriddinov B. To'ychi hofiz. Hayoti va ijodi haqida. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968y,126b.

30. O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955y.567b.
31. O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 2-Tom. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959y.575b.
32. O'zbek xalq musiqasi. V-Tom. Xorazm maqomlari. To'plovchi va notaga oluvchi M.Yusupov. –T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958y.614b.
33. O'zbek xalq musiqasi. VI-Tom. Xorazm maqomlari. To'plovchi va notaga oluvchi M.Yusupov. –T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960y.604b.
34. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996y.
35. An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari. Fan dasturi. Tuzuvchilari: Q.Mamirov, M.Mamirov, 2001y.
36. Nosirov R. Xalq qo'shiqlari kompazitsiyasi. -T.: Fan, 2006y.
37. Hasanov A.Sh. Нравственное эстетического воспитания молодёжи средствами музыки. (monografiya) -T.: Fan, 1985y.
38. Hasanov A.Sh. Musiqa va tarbiya. -T.: O'qituvchi, 1993y.
39. Kushayev A. Estetik tarbiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 1988y.
40. Mamirov Q, S.Begmatov. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. -T.: G' G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2010y.
41. Ibrphimov O, Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik. –T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008yil.
42. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash (monografiya)-T.: Fan, 2009y,164b.
43. Халабузар П и другие. Методика музыкального воспитания, -М.: Музыка, 1983й.
44. Fayzullayev E. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish. -T.: 2008yil.

45. Soipova D. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish.-T.: 2006y.
46. Burov A. Estetika problemi i skoroy.-M.: -Prosveshение, 1987й.
47. Kabalevskiy D.B. Kak rasskazyvat detyam o muzyke. -M.: Prosveshение, 1987й.
48. Esteticheskaya kul'tura i esteticheskoye vospitaniya. Sostavitel' E.S. Lobkovekaya.-M.: -Muzyka, 1993й.
49. A. Avloniy. Turkiy guliston-yoxud axloq.-T.: O'qituvchi, 1992y.
50. Azhimov B.G. Nравственное воспитание молодёжи средствами народной музыки (материале музыкального самодеятельности П.Т.У. Респудлики Узбекистан) Автореф. Дис. ...канд. пед. наук.-Т. 1991й
51. Teplov V.M. Musiqiy qoboliyatlar psixologiyasi.-M.: RSFSR. PFA. 1997Y.
52. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat.-T.: O'qituvchi, 1992y.
53. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996y.
54. Abdullayev R.S. Janr katta ashula u ego noeibeli. Avtoref. Dis... kand. Iskustv. Toshkent, 1982y.49b.
55. Begmatov S. Farg'ona vodiysi hofizlik an'analari. San'atshunoslik nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –Toshkent, 1995y, 121b.
56. Ibrohimov O.A Maqomlar semantikasi. San'atshunoslik doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –Toshkent, 1998y,257b.
57. Mamatqulova R. Milliy, ma'naviy meros asosida universitet talabalarida xuloq-odob fazilatlarini tarbiyalash. Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent, 1995y, 220b.
58. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. Pedagogika fan nomzodini olish uchun Avtoreferati-Toshkent, 2006y,19b.
59. Ramonova S.E. Qoraqalpoq milliy, musiqiy an'analari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashning pedagogik usullari. Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Aftoreferat. Toshkent, 2005y,21b.

60. Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini mukammallashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Aftoreferat. Toshkent, 2010y, 23b.
61. Madrimov B.X. Xalq musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Aftoreferat. Toshkent, 2008y, 22b.

## Ilova-1.

Oltinchi sinf 1-2-chorak mavzulari bo'yicha o'quvchilar bilimini nazorat qilish savollari.

1. Mumtoz musiqa tushunchasi nimani bildiradi?
2. Mumtoz musiqa kimlar tomonidan yaratildi?
3. Qanday mumtoz qo'shiqlarni bilasiz?
4. Mumtoz musiqa yo'nalishlardan qaysilarini bilasiz?
5. Mumtoz kuylar qaysi cholg'u asboblarda ijro etiladi?
6. "Janon" kuyini muallifi kim?
7. "Ushshoq" turkumiga kiruvchi mumtoz musiqalarni bilasizmi?
8. "Bayot", "Suvora" lar qanday qo'shiqlar?
9. "Munojot" kuyi va qo'shig'ini limlar ijro etishgan?
10. Ashula qanday janr?
11. "Shashmaqom" nima?
12. "Shashmaqom"ning tarkibiy qismlarini bilasizmi?
13. "Shashmaqom" qayerda mukammallashgan?
14. Katta ashula janriga tavsif bering?
15. 4 ta mahalliy uslublarni ayting?
16. "**Klassik**" iborasiga tariff bering?
17. Turk xalq musiqasi haqida aytib bering?
18. Eron xalq musiqasi asoschisi Borbad haqida bilasizmi?
19. Arab milliy cholg'ulari nomini ayting?
20. Uyg'ur, Qozoq, Qirg'iz musiqalari o'xshashligi nimada ko'rinadi?

6-sinf 3-4-chorak mavzulari bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish savollari.

1. Hozirgi o'zbek zamonaviy musiqasi turlarini ayting?
2. "Mustaqillik lolalarimiz" qo'shig'ini kim yozgan?
3. "O'zbekimdan aylanay" qo'shig'ini aytib bera olasizmi?
4. Folklor musiqasi haqida nimani bilasiz?
5. Dostonchilik san'ati va ijrochilik uslublari haqida nima bilasiz?
6. Estrada so'zining ma'nosini izohlang?
7. Qanday Estrada guruhlarini bilasiz?
8. Botir Zokirov ijro etgan qo'shiqlarni bilasiz?
9. "Yalla" ansambli haqida nimalarni bilasiz?
10. "Yalla" ansambli rahbari kim?
11. Rok-musiq va Pop-musiq nima?
12. Ko'p ovizli musiq janrlaridan qaysilarini bilasiz?
13. L.V.Betxovenning qaysi asarlarini bilasiz?
14. V.A.Motsart qayerda va qachon tug'ilgan, qanday asarlar yozgan?
15. Organ qanday musiq asbobi?
16. Kantata , oratoriya, balet haqida nimani bilasiz?
17. V.A.Motsart necha yoshida musiq yozgan?
18. Simfoniya qanday janr?
19. Simfoniya necha qismdan iborat bo'ladi, nomlarini ayting?
20. Glinkaning hayoti, ijodi va asarlari haqida nimalarni bilasiz?

**A.Navoiy nomidagi SamDU, Musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti  
Muhammatova Ozodaning “Mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda  
milliy g'oya va mafkurani shakllantirish” mavzusidagi magistrlik  
dissertatsiyasiga**

**T A Q R I Z.**

“Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unibkelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek naziklik va mehr bilan oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim”. Prezidentimiz I.A Karimovning ta'kidlab o'tgan ushbu so'zlari ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Sababi unib-o'sib kelayotgan yosh-avlodni tarbiyalashda, ular ongida va qalbida milliy g'oya va mafkurani singdirishda birinchi navbatta pedagog-ustozlarimiz va bir qator omillarning ta'siri katta. Bu borada jamiyatimizda rivojlanib taraqqiy etib borayotgan har bir sohaning o'rnini bor. Ayniqsa bugungi kunda yoshlarni ongiga tez yetib boradigan san'at sohasining, jumladan xalqimizning chinakkam ma'naviy merosiga aylangan mumtoz kuy-qo'shiqlarimizning ahamiyati juda katta. Shu ma'noda Muhammatova Ozodaning “Mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish” deb nomlangan magistrlik dissertatsiyasini dolzarb muammolardan biri deb hisoblash mumkin.

Muallif o'z ishini yoritishda avvalo nazariy tomonlarini yoritishga jiddiy yondoshadi. Shu o'rinda respublikamizda taniqli olimlarning mumtoz kuy-qo'shiqlar va ular haqidagi asarlar ustida ishlashga oid ilmiy-amaliy ishlarini atroflicha o'rganadi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartlari va o'quv dasturiga ko'ra mumtoz kuy-qo'shiqlar bo'yicha o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim va tushunchalarni tahlil qilib, bu boradagi mavjud muammolar

yuzasidan o'z fikr, xulosa va tavsiyalarini ilgari suradi va ularni o'z tadqiqiy ishini bajarish davomida erishilgan natijalariga asosan dalillashga harakat qilgan.

Ishning apparat qismi ilmiyligi bilan ajralib turadi. 1-bob esa mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning nazariy masalalari. Mumtoz musiqa vositalarida o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari deb nomlanib ularning ilmiyligi, amaliy ahamiyati va pedagogik muammolari tasnifi keng yoritib berilgan.

2-bobda esa Mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning tashkiliy- uslubiy asoslari va o'quvchilarning mumtoz kuy-qo'shiqlarni tinglash va kuylashning o'ziga xos metodik imkoniyatlariga ta'rif beriladi va ularning samaradorlik xususiyatlari ishning 3-bobida tajriba-sinov ishlari natijalari orqali dalillanadi. Bundan tashqari 3-bobda tadqiqot davomida olingan natijalar matematik-statistik tahlillar bilan isbotlab berilgan. Olib borilgan amaliy tajribalar mohiyati va mazmuni ushbu ishni mustaqil bajarilgan va tugallangan ish sifatida baholash imkonini beradi. Chiqarilgan xulosalar va ishlab chiqarilgan tavsiyalar ishning nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi va undan amaliy faoliyatda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Men ushbu dissertatsiyani ta'lim tizimida ahamiyatga molik deb hisoblayman va himoyaga tavsiya etaman.

**Samarqand san'at kolleji direktori:**